

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma xuquqida

UDK

HOLMATOVA MAHBUBAXON AHMADJON QIZI

**MAVZU: «MUMTOZ LIRIK ASARLARNING INGLIZ VA RUS
TILLARIGA BADIY TARJIMA QILISH MUAMMOLARI»**

5A120101-Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) mutaxassisligi
bo'yicha magistr darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Iroda Jo'rayeva

Namangan – 2016

MUMTOZ LIRIK ASARLARNING INGLIZ VA RUS TILLARIGA BADIY TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

MUNDARIJA

KIRISH.....

I BOB. TURKIY MUMTOZ LIRIK ASARLAR VA ULARNING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI.

- 1.1. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» jahon adabiy jarayonida.....11
- 1.2. Maxmud Koshg'ariyning “Devoni lug'ot-it turk” asari – ilk turkiy yozma
yodgorlik.....14

II BOB. SHE'RIY ASARLARNI XORIJIY TILLARGA O'GIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

- 2.1. “Devoni lug'ot it-turk” va “Qutadg'u bilig”dagi tabiat tasviri R.Denkoff va
J.Kelly talqinida.....39
- 2.2. Badiiy tarjimada vazn va qofiyani qayta yaratish muammolari.....54

III BOB BADIY SAN'ATLARNI TARJIMADA QAYTA YARATISH MASALASI

- 3.1. Mumtoz lirik asarlardagi maqollarni tarjima qilish muammosi.....92
- 3.2. So'zlar takroriga asoslangan badiiy san'atlar tarjimasi.....21

XULOSA.....153

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....12

KIRISH

Mavzuning o'rganilganligi. Prezidentimiz I.Karimov rahbarligida mamlakatimizda keng iqtisodiy islohotlar amalgam oshirilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy soha rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda 1997-yildan boshlab har bir yilga shu davr ichida taraqqiyotning muhim yo'nalishlarini ifoda etadigan nom berish an'anaga aylangan. 1997—2015-yillar oralig'ida yillarga quyidagicha nom berilgan: 2015-yil — “Keksalarni e'zozlash yili” 2014-yil — “Sog'lom bola yili” 2013-yil — “Obod turmush yili” 2012-yil — “Mustahkam oila yili” 2011-yil — “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” 2010-yil — “Barkamol avlod yili” 2009-yil — “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” 2008-yil — “Yoshlar yili” 2007-yil — “Ijtimoiy himoya yili” 2006-yil — “Homiylar va shifokorlar yili” 2005-yil — “Sihat-salomatlik yili” 2004-yil — “Mehr va muruvvat yili” 2003-yil — “Obod mahalla yili” 2002-yil — “Qariyalarni qadrlash yili” 2001-yil — “Onalar va bolalar yili” 2000-yil — “Sog'lom avlod yili” 1999-yil — “Ayollar yili” 1998-yil — “Oila yili” 1997-yil — “Inson manfaatlari yili”

“O'zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida 5-dekabr, shanba kuni O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish bo'lib o'tdi, deya xabar bermoqda O'zMTRKning “O'zbekiston” telekanali “Axborot” informatsion dasturi. Foto: O'zA Unda davlat va jamoat arboblari, fan, madaniyat va san'at namoyandalari, poytaxt jamoatchiligi, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy davlatlarning elchixonalari va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari ishtirok etdi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tantanali yig'ilishda ma'ruza qildi. Prezident kirib kelayotgan yangi — 2016-yilni O'zbekistonda “Sog'lom ona va sog'lom bola yili” deb e'lon qilishni taklif etdi¹. O'zbekiston Prezidentining bu taklifi yig'ilganlar tomonidan gulduros qarsaklar bilan qo'llab-quvvatlandi.

6 noyabr kuni xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi².

¹ <http://uzmuz.tv/library/23128/ozbekistonda-2016-yil-soglom-ona-va-soglom-bola-yili-deb-elon-qilindi.html>

² <http://www.namangan.uz/index.php/uz/yangiliklar/494-namangan-viloyati-kengashining-navbatdan-tashqari-sessiyasi>

Davlatimiz rahbari o'z nutqida viloyatda oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining amalga oshirilishi natijasida subventsia, ya'ni markaz byudjetidan yordam ulushi kamaygan bo'lsa-da, uning hajmi haligacha yuqori darajada saqlanib qolayotganiga alohida e'tibor qaratdi. Bugungi kunda mahalliy xarajatlarning 41 foizi mamlakatimiz byudjeti hisobidan qoplanib kelayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Eng achinarlisi, viloyatdagi 11 ta tumandan 10 tasida bu ko'rsatkich 60 foizdan oshib ketgan. Ayniqsa, Kosonsoy, To'raqo'rg'on, Uychi, Yangiqo'rg'on tumanlarida bu masala o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda.

Holbuki, Namanganda hali ishga solinmagan shunday behisob imkoniyatlar borligini inobatga oladigan bo'lsak, o'zingiz ayting, bunday holat sizlarga yarashadimi, deb ta'kidladi Yurtboshimiz

Sessiyada so'zga chiqqan Namangan davlat universiteti professori Tursunboy Fayzullaev, "Afro'z-Kamol-Nabi" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori Sobitxon No'monov, Chust tumanidagi "Baymoq" qishloq fuqarolar yig'ini raisi Mavluda Imomova va boshqalar Prezidentimizning nutqida Namangan viloyatida keyingi yillarda erishilgan yutuq va natijalar bilan birga, keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish borasida jiddiy kamchilik va muammolar borligi, ularni hal qilish yo'llari chuqur tahlil etilib, viloyatni rivojlantirishning istiqbol rejalari, shu yo'lda Namangan ahli oldida turgan dolzarb vazifalar aniq-ravshan ko'rsatib berilgani, ularni amalga oshirish uchun butun viloyat aholisi bir yoqadan bosh chiqarib, hamjihatlik bilan mehnat qilishi zarurligini alohida ta'kidladilar.

Turkiy xalqlar adabiyoti o'zining qadimiy ildizlariga ega. Bu adabiyot uch ming yillik tarixni o'z ichiga oladi. Turkiy adabiyotning ilk davrini «Islomgacha bo'lgan adabiyot» nomi bilan o'rganish joizdir. Adabiyotimizning qadimgi davri nodir yodgorliklarga ega bo'lib, ular asosan xalq og'zaki ijodi mahsulidir. Shu sababli ham bu asarlarning mualliflari aniq bir ijodkor yoki bir millat bo'lmay, ular barcha turkiy xalqlarning madaniy merosidir. Turkiy xalqlar islomdan oldin totemizm, animizm, shomonizm, ko'k tangri, buddaviylik, moniylik, zardushtiylik, xristianlik kabi dinlar va diniy aqidalarga amal qilishgan. Ko'k tangri ularning muqaddas dinidir. Lekin Ko'k tangri dinining muqaddas ta'limotini ifodalagan maxsus kitob tarixda bo'lgan

yoki bo'lmaganligi hozircha ma'lum emas. Turkiy xalqlar amal qilgan dinlar va ularning o'ziga xos xususiyati, avvalo, turkiy xalqlarning bizgacha yetib kelgan badiiy asarlarida, shuningdek, muqaddas kitoblar «Injil» va «Avesto»da o'z ifodasini topgan. Qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodi o'zining rang-barang mavzu yo'nalishiga ega. Eng avvalo, turkiy urug'larning shakllanish, birlashish va turli bosqinchi kuchlarga qarshi kurashishi bu davr og'zaki adabiyotining yetakchi mavzusidir. Doston va eposlarda qahramonlik hamda bahodirlik ruhi ustun turadi³.

Qadimgi turkiy xalqlar yaratgan adabiy asarlarning syujeti miloddan avvalgi asrlarda turkiy xalqlar yashagan, harbiy yurishlarda bo'lgan hududlarda endilikda istiqomat qilayotgan xalqlarning adabiyotiga ham singib ketgan. Prometey haqidagi asotir va afsonalar, nemislarning «Nebulengular haqida qo'shiq», gruzinlarning «Amiran», «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon», fors va arab tillarida yaratilgan tarixiy va badiiy asarlarda Afrosiyob haqida mavjud adabiy syujetlar, rus-slavyan xalqlari o'rtasidagi Alber (Alp Er) nomiga mansub afsonalar shunday xususiyatga ega.

Turkiy xalqlar hayotiga islomning kirib kelishi uning adabiyoti tarixidagi an'analar va e'tiqodlarni inkor etmaydi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qadimgi turkiy xalqlar ijodiga mansub janrlarning yuksak namunalari berilgan. Devonda Alp Er To'nga (Afrosiyob) sharafiga bitilgan she'riy, turk xoqoni Shu haqidagi nasriy doston parchalarining saqlanishi adabiyotimiz tarixida yirik hajmli asarlar yaratilganini tasdiqlaydi.

Islom dini joriylashganidan so'ng yaratilgan asarlarda, jumladan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida turkiy xalqlarning o'ziga xos qadimiy belgilari va e'tiqodlari ifodasini topdi. Asar qahramonlarining nomlanishi, osmon jismlariga sig'inish yoki Alp Er To'nga davridan qolgan hikmatlarga qayta-qayta murojaat etilishi buning yorqin dalilidir. Islomgacha bo'lgan turkiy xalqlar adabiyoti o'z janr rangbarangligiga ega. Bu davr adabiyotining ko'lami, salmoqdorligi, g'oyaviy-badiiy qimmatini belgilash, ko'p jihatdan uning janrlarini aniqlashga bog'liqdir. Lekin

³<http://n.ziyouz.com/books/adabiyotshunoslik/Abdurashid%20Abdurahmonov.%20Turkiy%20xalqlar%20og'zaki%20ijodi.pdf>

hozirgacha adabiyotshunosligimizda qadimgi davr adabiyoti janrlarini islom adabiyotida mavjud janrlar bilan, ya'ni keyingi davr adabiyotshunosligi atamalari bilan nomlash tamoyillari mavjudki, u maqsadga muvofiq emas. «Devonu lug'otit turk»dagi adabiyotshunoslikka oid qarashlar, shuningdek, adabiy parchalar va qadimgi turkiy til bilan nomlangan atamalar islomgacha bo'lgan adabiyotda yigirmaga yaqin janr mavjud bo'lgan degan xulosani beradi.

Yirik adib va mashhur adabiyotshunos, Maqsud Shayxzoda shunday deb yozadi: «Badiiy madaniyatning qimmatbaho qismi bo'lgan she'r va she'riyat jamiyatimizning a'zolarida olijanoblik hislatlarini tarbiyalashga qaratilgan ekan, buyuk so'z san'atkorlarining merosini tadqiq qilib, uning barcha ma'naviy va umumbashariy boyliklarini egallash va dohiy ustodlarning ijodiy mahoratidan ta'lim olish – adabiyotshunoslarning hamda barcha badiiy qalamkashlarning vazifasidir»⁴.

Bu vazifani amalga oshirishda qadimiy yozma manbalarimiz alohida mavqe tutadi.

XI asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkistonda (Koshg'ar) va Markaziy Osiyo hududida qoraxoniylar saltanati mustahkamlandi. Bu hokimiyatning markazi Koshg'ar (O'rdukent) bo'lib, uning shimolida Bolasog'un (Kuzo'rdu), g'arbida Samarqand kabi yirik siyosiy va madaniy markazlar bor edi. Yirik shoir va faylasuf Yusuf Xos Hojib xuddi mana shu davrda yashab ijod qildi.

Uning asaridan ma'lum bo'lishicha, vatani Bolasog'un bo'lgan. Uning qalamiga mansub, «Qutadg'u bilig» («Baxt-saodatga eltuvchi bilim») asari 1069 yilda Koshg'arda yozib tugallangan. Shoir o'z asarini qoraxoniylar hukmdori Tavg'och Bug'roxonga taqdim qiladi. Asar Bug'roxonga ma'qul keladi va u shoirga Xos Hojiblik lavozimini beradi.

Xullas, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari XI asr o'zbek pandnomalarining noyob namunasi bo'lishi barobarida o'zbek mumtoz she'riyati janrlarining ilk namunalarini ham namoyish etuvchi qomusiy asar hisoblanadi.

XI asrda Markaziy Osiyo tuprog'ida qoraxoniylar davlati hukmronlik qilgan. Bu davlat Sharqiy Turkistondan tortib Hazar (Kaspiy) dengizigacha bo'lgan ulkan

⁴ Мақсуд Шайхзода. Устоднинг санъатхонасида. Биринчи мақола. // Мақсуд Шайхзода. Асарлар. Олти томлик. Тўртинчи том. ғазал мулкининг султони. - Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972, -216-б.

maydonni o'z ichiga olgan. Markazlashgan qoraxoniylar davlati o'z tasarrufidagi xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida mislsiz yuksalishlarni vujudga keltirdi. Xuddi mana shu davrda turkiy xalqlar shuhratini butun olamga yoygan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga eltuvchi bilim») va koshg'arlik qomusiy bilim egasi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» («Turkiy so'zlar devoni») asarlari yaratildi.

Tadqiqotning maqsadi qadimgi ilk Turkiy yozma yodgorliklarning jahon adabiyotida tutgan o'rnini ilmiy tahlidan o'tkazish.

Tadqiqotning vazifasi. Dissertatsiyaning asosiy vazifalari sifatida:

- Qadimgi Turkiy yozma yodgorliklar va ularning jahon adabiyotida tutgan o'rnini kuzatish va o'rganish.
- Bu ma'noda Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarini jahon adabiy jarayonida tutgan o'rnini aniqlash va o'rganish.
- Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'ot-it turk» asari – ilk turkiy yozma yodgorlik sifatida jahon turkiyshunoslari tomonidan tadqiq etilish jarayonini tahlil etish.
- «Devoni lug'ot it-turk» va «Qutadg'u bilig»dagi tabiat tasviri yuzasidan turkshunos olim R.Denkoff tadqiqotlarini o'rganish va tahlil etish.
- Badiiy tarjimada vazn va qofiyani qayta yaratishning o'ziga xos jihatlarini tarjimalar misolida o'rganish.
- Badiiy san'atlarni tarjimada qayta yaratish muammolarini tahlil etish.
- Mumtoz lirik asarlardagi maqollarni tarjima qilish maslalarini o'rganish.
- So'zlar takroriga asoslangan badiiy san'atlar tarjimasidagi ayrim muammolarini tahlil etish kabilar belgilangan

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. She'riy tarjimaning o'ziga xos jihatlarini to'g'risida yurtimizda bir qator yirik va fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan G.Salomov⁵, N.Komilov⁶, N.Otajonov⁷, M.N.Holbekov⁸, M.Q.Baqoyeva⁹,

⁵ Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1966. – 384 б., Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 244 б., Саломов Ғ. Адабий анъана ва

H.Karomatov¹⁰, S.Olimov¹¹, Z.N.Isomiddinov¹², M.Sobirov¹³, R.Karimov¹⁴, R.Fayzullaeva¹⁵, S.Rustamova¹⁶, M.Javburiev¹⁷, E.Z.Ochilov¹⁸, K.J.Juraev¹⁹, Y.Nurmurodov²⁰, A.X.Abdullajonov²¹, N.M. Urmonova²² va Q.Sidiqov²³larning

бадий таржима. – Т.: Фан, 1980. – 158 б., Саломов Ғ. Таржима ташвишлари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 190 б.

⁶ Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 222 б.

⁷ Ғайбуллоҳ ас-салом, Неъматуллоҳ Отажон. Жаҳонгашта “Бобурнома” – Т.: Фан, 1996. – 362 б.

⁸ Холбеков М.Н. Узбекско-французская взаимосвязия (в аспекте перевода, критики и восприятия): Дис. ... д-ра. филол. наук. – Т.: 1991. – 432 с., Холбеков М. Таржима назариясининг лингвистик тамойиллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2010. – № 4. – Б.14-23.

⁹ Бақоева М.Қ. Англия, АҚШ адабиётидан ўзбек тилига шеърӣ таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари: Филол. фан. д-ри ... дис. – Т.: 2004. – 314 б.

¹⁰ Кароматов Х. Ўзбек адабиётда “Қуръон” мавзулари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Т.: 1992. – 46 б.

¹¹ Олимов С.Х. Алишер Навоӣ асарларидаги шеърӣ санъатлари таржимада қайта яратиш ва шакл бериш муаммолари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 1985. – 26 б.

¹² Исомиддинов З.Н. Яқин туркий тиллардан шеърӣ таржима хусусиятлари. “Манас” эпоси таржимаси мисолида: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 1991. – 24 б.

¹³ Собиров М. “Бобурнома” Виллур Текстон таржимасида: Филол. фан. ном. ... дис. – Т.: 2001. – 132 б.

¹⁴ Каримов Р. “Бобурнома”даги шеърлар хорижий таржималарининг қиёсий таҳлили: Филол. фан. ном. ... дис. – Т.: 2003. – 128 б.

¹⁵ Файзуллаева Р. Бадий таржимада миллий хосликни ифодалаш муаммосига доир: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 1972. – 22 б.

¹⁶ Рустамова С.А. Махмуд Кошғарий луғатининг лексикографик хусусиятлари. Ф.ф.н. илмий даражаси олиш учун ёзилган дисс. Т.: 1998

¹⁷ Жавбўриев М. Воссоздание национального характера и исторического колорита в художественном переводе: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т.: 1991. – 20 с.

¹⁸ Очилов Э. Рубоӣ таржимасида шакл ва мазмун бирлиги: Филол. фан. ном. ... дисс. – Т.: 1994. – 134 б.

¹⁹ Жўраев К.Ж. Шеърӣ таржималарни адабий ва фольклор алоқалари йўриғида қиёсий ўрганиш: Филол. фан. док. ... дис. автореф. – Т.: 1987. – 34 б.

²⁰ Нурмуродов Й. Ўзбек фольклорини ўрганиш тарихи ва уни олмон тилига илмий-адабий таржима қилиш муаммолари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 1983. – 19 б.

²¹ Абдуллажонов А.Х. Навоӣ бадиятини немисча таржималарда қайта яратиш ва табдил этиш: Филол. фан. ном. ... дис. – Т.: 1998. – 144 б.

²² Ўрманова Н.М. Таржимада тарихий-архаик лексикани акс эттириш принциплари ва таржима аниқлиги (ўзбек классик адабиётидан француз тилига қилинган таржималар таҳлили асосида): Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 2008. – 26 б.

²³ Сидиков Қ. “Қутадғу билиг” тўртликларининг инглизча бадий таржима хусусиятлари. Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 2010. – 26 б.

tadqiqotlari shular jumlasidandir. Mazkur tadqiqotlarda she'riy va nasriy tarjima xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan.

Tadqiqot ob'ekti. Tadqiqot uchun manba sifatida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Maxmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'ot-it turk” asarlari va bir qator she'rlar olindi.

Tadqiqotning metodologik asosi va metodlari. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyotga oid nazariy fikrlari, hozirgi zamon tarjimashunoslik ilmining yutuqlari, tajribalari, o'zbek va jahon tarjimashunos olimlarining fikr-mulohazalari dissertatsiyaning metodologik asosini tashkil etadi. Ishda asosan qiyosiy-tipologik usulga tayanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Yusuf Xos Hojib va Maxmud Qoshg'ariy yaratgan asarlar shu qadar ulkan mo'jizaki, unga xos bo'lgan asosiy qonuniyatlar, fazilat va xususiyatlari va ularni xorijiy xususan rus va ingliz tillariga tarjima qilishning o'ziga xos jihatlarini o'rganish va tarjimalarni o'zaro qiyosiy tahlil etish zamonaviy tarjimashunoslik fani uchun g'oyat zarur ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki uning ilmiy xulosalari va tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishda tadqiqotlarda, shu sohalarga oid darslik va qo'llanmalar yaratishda, ta'limning turli bosqichlari uchun dastur, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda foydali bo'ladi.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. TURKIY MUMTOZ LIRIK ASARLAR VA ULARNING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

1.1. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari jahon adabiy jarayonida

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimizning qadimiy va boy madaniy merosini, adabiy yodgorliklarini atroflicha, jiddiy tadqiq etish ishlarining ko'lamini kengaytdi. Zero, ota-bobolari merosiga xurmat bilan qaramagan, o'rganmagan, uni dunyo afkor ommasiga tanitishga intilmagan xalqda rivojlanish ham, butun dunyoga rosmanga tanilish ham bo'lmaydi.

Filologiya fanlari doktori, professor B.To'xliiev ta'kidlaganidek: «Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari turkiy xalqlar adabiyoti tarixida muhim o'rin egallab, jahon adabiyotidagi badiiy kashfiyotlarning eng porloq namunalaridan hisoblanadi. «Qutadg'u bilig»ning yaratilishi turkiy xalqlar adabiyoti tarixida ilk klassik poeziyaning kamolot davrini tashkil etadi. Mazkur asarning paydo bo'lishi tasodifiy bir hol bo'lmay, qadimiy tarixga ega bo'lgan turkiy xalqlar poeziyasi taraqqiyotining qonuniy hodisasi sifatida o'zida turkiy poeziyaning barcha muvaffaqiyatlarini aks ettiradi»²⁴.

«Yusuf Xos Hojib o'z asarining muqaddimasida bizga habar berishicha, kitob asosida 4 xarakterdagi ramziy obrazlar yotadi. Ularning har biriga muayyan vazifa yuklatilgan:

- Chiqqan kun, quyosh (**Kun tug'di**) -Podsho (bek)-Adolat
- To'lin oy (**Oy to'ldi**)-Vazir-Baxt-saodat
- Yuksak aql (**O'gdulmish**)-Dono, donishmand-Intellect (bilim)
- Uyg'ongan, tetik-(**O'zg'urmish**)-Asketik, ruhoni, Oxirat

«Asarning birinchi qismida dastlabki 3 qahramon xarakter tavsifi va eroniy an'analardan kirib kelgan shohlar ko'zgusi mavzuyi asosiy o'rin egallaydi. Ikkinchi qismida esa, O'zg'urmish (uyg'oq, xushyor)ning muxolifatga asoslangan xakteri

²⁴ Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг «Қутадғу билиг»и ва айрим жанрлар тақомили (Маснавий, тўртлик, қасида). - Тошкент: Асп-Матбуот, 2004, - 3 б.

hamda o'sha davrga xos dinga tasavvufiy qarash yohud islomiy mistika tug'risida gap boradi. Mazkur qism "Qutadg'u bilig"ning eng muhim jihatlarini namoyon qilgan"²⁵. "Asar uchun shunday bir uslub tanlanganki, unda yuksak insoniy tuyg'ular bevosita turli qaxramonlar timsolida gavdalanadi."²⁶ Asardagi farovon hayot, adolat, baxt va imon sari eltuvchi yo'l **Adolat, Davlat, Aql** va **Qanoat** timsollarida o'z ifodasini topgan.

Bu asarni atroflicha o'rganish bizning zamonamiz uchun hayotiy zaruratdir. Ayniqsa, undagi badiiy ta'sir kuchining qanday omillarga bog'liq ekanligi, bu omillarning yuzaga chiqish imkoniyatlari, bu imkonlardan Yusuf Xos Hojibning foydalana olish mahoratini tadqiq etish adabiyotshunosligimiz uchun ko'pdan-ko'p yangi xulosalar berishi tabiiy.

Yusuf Xos Hojib yaratgan ilk turkiy yozma obida namunasi "Qutadg'u bilig" o'zining teran mazmuni, go'zal badiiyati va nafis poetikasi bilan bir necha asrlardan beri jahon ilm ahlining, san'atsevarlarning diqqat markazida turibdi. Bu asarni har tomonlama tadqiq etish Yusuf Xos Hojib vorislari uchun ham qarz ham farzdir. Asar dunyo olimlari tomonidan keng o'rganilayotgani va dunyoning turli tillariga bir necha marotaba tarjima etilgani bugungi kun tadqiqotchilari oldiga asarni mukammal tadqiq etish bo'yicha yanada salmoqli vazifalarni qo'yadi. Asarning turli tillardagi tarjimalarini tahlil etish uni jahon adabiy jarayonidagi mavqeini yanada oshiradi.

Yusuf Xos Hojibning asari bizgacha yetib kelgan yirik hajmdagi ilk turkiy yozma badiiy asardir. Shu ma'noda uni har tomonlama chuqur tahlildan o'tkazish bugungi kunnig muhim vazifalari sirasiga kiradi. Bu borada R.R.Arat, A.Fitrat, A.Valitova, J.Amade, ye.Bertels, J.Klinton, R.Denkoff, V.Mey, S.I.Ivanov, Q.Karimov, B.To'xliev, Q.Sodiqov, Z.Sodiqov, H.Homidov, X.Abdullaev, Q.Sidiqov va boshqalarningilmiy tadqiqotlari asarni turli yo'nalishlarda tadqiqi bo'yicha amalga oshirilgan ishlardir.

²⁵ Yusuf Khash Hajib, *Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes*, translated, with an introduction and notes, by Robert Dankoff. University of Chicago Press, 1983. Pp. 281

²⁶ Тўхлиев Б Билим эзгулик йўли .Тошкент, "Фан", 1990.

“Asarni atroflicha o’rganishda yana ko’plab olimlarning nomlarini keltirish o’rinli. Xususan, A.Qayumov, Xolid Rasul, O.Jo’raev²⁷ va boshqalar adabiyotshunoslik, G’.Abdurahmonov²⁸, E.Fozilov²⁹, A.Aliev³⁰, E.Umarov³¹ kabi olimlar asarni lisoniy xususiyatlariga oid bir qator kuzatishlarini e’lon qildilar. Adabiyotshunos H.Abdullaev³² asardagi xalq maqollari va aforizmlarni ilmiy tahlildan o’tkazdi. Metodist olim B.Abduraxmonova³³ “Qutadg’u bilig”ni o’rta maktab, akademik litsey va kasb hunar kollejlari o’rganishning o’ziga xos jihatlarini tadqiq etdi”³⁴.

“Qutadg’u bilig” hozirgacha jahonning ko’plab tillariga tarjima qilindi. Xususan, G’arbiy yevropa tillariga qilingan tarjimalarning ham ahamiyati juda katta. Ushbu tarjimalar ko’plab o’zbek va xorijiy olimlar tomonidan tahlil etildi va hamon bu ishlar davom etmoqda. Asarni O’zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda o’rganilish tarixi uzoqlarga borib taqalishiga qaramay, uning xorijiy tillardagi talqinlarini bir-birlari bilan qiyosiy tahlil etish ishlari hali ayrim maqola va eslatmalar darajasidagina qolib kelayotganligini tan olishga to’g’ri keladi. Asar ingliz tiliga birinchi marta Chikago universiteti professori Robert Denkoff³⁵ tomonidan 1983 yilda va ikkinchi marta ingliz shoir va tarjimoni Volter Mey³⁶ tomonidan 1998 yilda tarjima qilingan bo’lsa-da, bu ikki tarjimani qiyosiy o’rganish bo’yicha monografik yo’nalishdagi yaxlit tadqiqot amalga oshirilganligi bizga ma’lum emas.

27 Жўраев О. Юсуф Хос Ҳожибнинг образ яратишдаги маҳорати. - Адабий мерос. Ўзбек адабиёти тарихидан материал ва тадқиқотлар. Илмий асарлар тўплами, 1982, 1 (21)-сон, 58—62-бетлар;

²⁸ Абдурахмонов Г.А. К переводу “Кутадгу билиг” на русский язык. - // Сов. Тюрк-ия, 1970, № 4, с.120-126.

²⁹ Фазылов Э. Лексика “Кутадгу билиг” в древнетюркском словаре. - // Советская тюркология, 1970, № 4, с.

³⁰ А.Алиев. “Кутадгу билиг” ва “Девону луғот ит-турк”нинг Наманган шевалярига муносабати. -// Ўзбек тили ва адабиёти, 1970, 6-сон. 35-37-бетлар.

³¹ Умаров Э. “Кутадгу билиг”даги бир ибора тарихи. - // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970, 6-сон, 64-66-бетлар.

³² Халқ мақолларининг “Кутадгу билиг” поэтикасидаги ўрни ва бадиий – эстетик функциялари. Фил. Фан. Номзоди илмий даражаси олиш учун ёзилган дисс... Тошкент 2004.

³³ “Таълим босқичларида “Кутадгу билиг”ни ўрганишнинг ўзига хос хусусиятлари” Пед. Фан. Номзоди илмий даражаси олиш учун ёзилган дисс... Тошкент 2007

³⁴ Сидиков Қ. “Кутадгу билиг” тўртликларининг инглизча бадиий таржима хусусиятлари. Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т.: 2010. – 6 б

³⁵ R.Denkoff. Yusuf Khass Hajib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes, translated, with an introduction and notes, by Robert Dankoff. University of Chicago Press, 1983

³⁶ Yusuf BalasaguniI. Beneficent knowledge / Translated into English by Walter May. – M., 1998.

R.Denkoff asarni R.R.Aratning tanqidiy matniga asoslanib bevosita asliyat tilidan o'giran. Bu "Qutadg'u bilig"ni ingliz tilidagi nasriy bayoni bo'lib, mutarjim istisno tariqasidagina asar tarkibidagi 200 ta to'rtlikni nazmiy tarzda ham o'giran. V.Mey esa asarni S.Ivanov qalamiga mansub ruscha tarjima³⁷ asosida to'lagigicha nazmiy tarzda o'giran. V.Mey talqinidagi she'riy tizim tahsinga loyiq. Mazkur ikki inglizcha tarjima o'zbek-ingliz-Amerika adabiy aloqalarini mustahkamlovchi nodir manbaalardir. Ammo, bizning nazarimizda, birinchi tarjimaning asosiy nuqsoni uning nasrda berilgani bo'lsa, ikkinchi tarjimadagi asosiy kamchilik uning asliyatga emas, balki yordamchi tildagi tarjimaga tayanganligi bilan izohlanadi.

Shunga qaramay, mazkur inglizcha tarjimalarini o'rganish "Qutadg'u bilig"ni jahon adabiyotida tutgan o'rni va boshqa xalqlar adabiy an'alariga ta'sirini aniqlash imkonini yaratadi. Ularni asliyat bilan qiyosiy tahlil etish, asliyatga adekvatlik darajasini aniqlash adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik uchun muxim dalil va xulosalarni beradi. Qiyosiy o'rganishning yana bir muhim tomoni shundaki, u orqali qadimiy turkiy obidani zamonaviy ingliz tiliga moslashtirish usullari, yo'llari, bu boradagi yutuq va kamchiliklar yuzaga chiqadi.

Asarning o'rganilish tarixi bir qator tadqiqotlar uchun alohida ob'ekt bo'la oladi. Hozirgacha bu yo'nalishda bir necha urinishlar bo'lganini ta'kidlash o'rinlidir. Bu yo'nalishda dastlab yirik turk olimi Rashid Rahmati Aratning nomini mamnuniyat bilan tilga olish kerak. U «Islom entsiklopediyasi»da asarning o'rganilishi bilan aloqador bo'lgan yirik bir maqolasini e'lon qilgan edi³⁸. O'zining ilmiy tahlili, qamrovining kengligi, ma'lumotlarining aniqligiga ko'ra ushbu maqola haligacha o'z ilmiy ahamiyatini pasaytirgani yo'q. U 1955 yilgacha bo'lgan davrdagi deyarli barcha dunyo turkshunosligida «Qutadg'u bilig» yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni qamrab olganligi bilan e'tiborga molikdir.

Asarning o'rganilish tarixini umumlashtirishga A.K. Zayonchkovski ham munosib hissa qo'shgan olimlardan biridir. U faqat Yusuf Xos Hojib asarini emas,

³⁷ Юсуф Баласагуни Благодатное знание. / перевод С.Н. Иванова М.1990 418 стр

³⁸ Arat R. R. Kutadgu Bilig.- Islam ansiklopod1s1. Istanbul: Maarif Basimevi. 6 cilt. 1955. s. 1039.

balki XI - XIV asrlarda yaratilgan yozma obidalarining jahon turkiyshunosligidagi o'rganilish tarixini yoritib berishga uringanligi bilan e'tibor qozongan.

Yusuf Xos Hojib asarining o'rganilish tarixi D.M. Nasilov diqatini ham o'ziga jalb etgan edi. Bu olim asarni o'rganishning ikkita jihatiga alohida e'tibor qaratgan. Ulardan biri qadimgi uyg'ur obidalari orasida «Qutadg'u bilig»ning mavqeini belgilash bilan, ikkinchisi muayyan olimlarning, asarni o'rganishdagi alohida xizmatlarini ko'rsatish bilan aloqador.

O'zbekistonda ayni shu mavzu bilan ikkita yirik «Qutadg'u bilig»shunoslar qiziqishgan. Ulardan birinchisi Qayum Karimov edi. Bu olim o'zining «Qutadgu bilig» ning topilishi va o'rganilishi tarixidan»³⁹ nomli maqolasida mazkur masalaga atroflicha to'xtaydi. Xususan, asarning Namangan nusxasining ilmiy muomalaga kiritilish tarixi bilan bog'liq tafsilotlarga maxsus urg'u beradi.

Ikkinchisi esa Boqijon To'xlievdir. U asarni umuman jahon turkiyshunoslari tomonidan o'rganilish tarixini yoritib berishga intilishi bilan e'tiborni tortadi. Olim ikkita maqolasini asarni o'rganish tarixini yoritishga bag'ishlagan. Ularning birinchisi o'zbek, ikkinchisi rus tilida. Muallif ushbu maqolalarida jahon turkiyshunoslarining «Qutadg'u bilig»ni o'rganishga oid yutuqlarini umumlashtirib beradi. Ushbu maqolaning afzalliklaridan biri shundaki, unda O'zbekistonda amalga oshirilgan (1980 yilgacha bo'lgan davr) barcha tadqiqotlar qamrab olingan⁴⁰.

Ko'rinib turibdiki, asarni o'rganish tarixining o'ziyoq mustaqil bir yo'nalishni tashkil etib bormoqda. Bu bejiz emas. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari jahon adabiyotshunoslari, tarixchilari, etnograflari, faylasuflari, siyosatshunoslari va boshqa ko'plab fanlar mutaxassislari uchun boy manba sifatida ularning e'tiborlarini tortishi tabiiy.

Ma'lumki, «Qutadg'u bilig»ning uchta qo'lyozma nusxasi ma'lum. Fanga dastlab uning uyg'ur yozuvi bilan yozilgan nusxasi ma'lum bo'lgan. Bunda yirik turkshunos Xammer Purgshtallning xizmatlari bor. U mazkur nusxani Istambuldagi

³⁹ Каримов Қ. «Қутадғу билиг»нинг топилиши ва ўрганилиши тарихидан: Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. 2-китоб.- Тошкент: 1961.

⁴⁰ Тўхлиев Б. Краткий обзор изданий о древнейшем письменном памятнике «Қутадғу билиг». -// Библиотеки Узбекистана. Сборник статей по теории и практики библиотечного дела. Выпуск II. Т., 1981, - С. 129-140.

kitob do'konidan sotib olib, Venadagi Saroy kutubxonasiga keltirgan. Mazkur nusxa asosida asar haqidagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelgan edi.

«Qutadg'u bilig»ning xorijdagi o'rganilishi dastlab manbashunoslik, matnshunoslik hamda umumfilologik yo'nalish kasb etgan edi. Bunga A. Vamberi, Morits, V.Radlov, A.Bombachi, N.I.Ilminskiy, S.E.Malov, V.V.Bartold, P.M.Melioranskiy, A.Samoylovich, N.A.Yudaxin, N.A.Baskakov, A.N.Kononov, E.R.Tenishev, G.F. Blagova, Sherbak, S.G.Klyashtorniy singari olimlarning ilmiy tadqiqotlari yaxshi misol bo'la oladi.

Umuman, xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan eng muhim ilmiy tadqiqot ishlarini yaxlit holda umumlashtiriladigan bo'lsa, hozirgacha Rossiya, Turkiya va uyg'ur (Xitoy) maktablari haqida gapirish o'rinli bo'ladi.

O'tgan asrning boshlarida asarning uchinchi – Namangan nusxasi ham fanga ma'lum bo'ldi. Ushbu ma'lumotlar muallifi sharqshunos A.Z. Validov edi. Bu nusxa endilikda jahon turkiyshunoslariga Namangan (Farg'ona) yoxud Toshkent nusxasi nomi bilan tanildi. Mazkur nusxa asarning butun jahonda, jumladan, Rossiyada ham ancha kegroq o'rganilishiga yana bir imkon bo'ldi.

Atoqli olim E.Bertels asar poetikasidagi o'ziga xosliklar, ayniqsa Yusuf Xos Hojib oziqlangan manbalarni aniqlashda yaxshi tashabbuslar ko'rsatgan edi. Bunday qiyosiy usul, xususan, adabiyot va fol klor yo'nalishida keyinroq X.Korogli tomonidan ham amalga oshirilgan.

«Qutadg'u bilig»ni tarixiy manba sifatida o'rganishda V.V. Bartold dan keyin eng katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan olim O.A.Valitovadir. U asarning adabiy xususiyatlari ustida ham ancha salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Xususan, dostonning xalq og'zaki ijodi bilan aloqasi, asardagi fol klor motivlarining yortilishi ustida yaxshi natijalarni qo'lga kiritdi, asar poetikasiga oid jiddiy kuzatishlarini amalga oshirdi. O'zni kelganda ta'kidlash joiz bo'ladiki, biz qiziqayotgan mavzu «Qutadg'u bilig»dagi xalq maqollarining badiiy-estetik vazifalarini muayyanlashtirishga bo'lgan dastlabki urinish ham Rossiya sharqshunosligida O.A.Valitova tomonidan amalga oshirilgan edi. Olima birinchi marotiba asar tarkibidagi maqollarning ayrim turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi parallelliklariga e'tiborni tortgan edi. Shuningdek, asar

poetik matnidagi manbalarni aniqlashga urinish ham olimaga yaxshi natijalarni keltirdi. U ayrim motivlarning Sharq xalqlari adabiyotidagi mushtarakliklar bilan izohlanishini amaliy jihatdan isbotlab berdi.

Asar poetikasini o'rganishda yirik sharqshunos olimi I.V.Steblevaning alohida xizmatlarini ham ta'kidlash kerak. Olimaning eng yirik xizmatlaridan biri shundaki, u asarni umumsharq hamda umumturkiy adabiyoti va san'ati kontekstida o'rganishning nazariy va amaliy asoslarini yaratib berdi. U Yusuf Xos Hojibning turkiy adabiyot taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatni atroflicha asosladi, bu asoslarning ilmiy va nazariy ahamiyatini ko'rsatib berdi.

I.V.Stebleva muxtasar holda asarning poetikasiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni belgilashga, asarning qadimgi turkiy an'analar, shuningdek, arab va fors-tojik adabiyoti poetikasi bilan aloqador jihatlarini ko'rsatishga harakat qildi. Xususan, asarning vazni va qofiya xususiyatlariga oid yangi xulosalari bilan turkiyshunoslik ilmini salmoqli darajada boyitdi.

1970 yilda «Qutadg'u bilig»ning 900 yilligi munosabati bilan IV Turkshunoslaranjumani mazkur asarni o'rganishga bag'ishlandi. O'sha paytdagi «Sovetskaya tyurkologiya» jurnalining bitta soni shu sanaga ataldi. Mazkur anjuman rezolyutsiyasida Moskva, Leningrad, Olma-Ota, Ashxobod, Boku, Toshkent, Frunze, Abakan, Nukus, Cheboksar, Nalchik, Yakutsk, Qozon, Novosibirsk, Ufa, Farg'ona, Buxoro, Tartu, shuningdek, Budapeshtdan 130 olim ishtirok etgani qayd etilgan⁴¹.

«Qutadg'u bilig»ning Rossiyada o'rganilishiga S.N.Ivanov ham munosib hissa qushgan. U asarni rus tiliga to'la she'riy tarjimasini amalga oshirdi, asarning poetik xususiyatlari haqida ilmiy kuzatishlarini e'lon qildi⁴².

Turkiyalik olimlarning ishlari ham juda salmoqli bo'lgan-ligini ta'kidlash joiz. Bu fikr asar matnini o'rshganish, chop etishga qanchalik tegishli bo'lsa, uning ilmiy tahlili va tadqiqiga ham shunchalik tegishlidir. M.F.Kuprulizoda, Rashid Rahmati Arat bu sohada juda kata muvaffaqiyatlarga erishganligini turkshunoslar yaxshi

⁴¹ Резолюция IV Тюркологической конференции, посвященной 900-летию «Кутадгу билиг» Юсуфа из Баласагуна.- // Советская тюркология, 1970, № 4, - С. 141-142.

⁴² Юсуф Баласагунский. Благодатное знание. Издание подготовил С.Н. Иванов. – М.: Наука, 1983.

bilishadi. Mehmet Qara asarning «Qur'on» oyatlari va hadislarga bo'lgan munosabatini ancha o'rgangan.

Asar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ikki marotaba olmon tiliga tarjima qilinib, u haqda maxsus tadqiqotlar yaratildi. O'tgan asrning o'rtalariga kelib bu noyob asarni usmonli turk, rus hamda Markaziy Osiyo turkshunoslari jiddiy o'rganib, bir qator tanqidiy matn, tabdil va tarjima nashrlarini yaratdilar. 1983 yilda "Qutadg'u bilig" ilk marotaba okean ortida, Robert Dankoff tomonidan ingliz tiliga o'girildi. Bu haqda professor Abdizuhur Abduazizov mahalliy ro'znomada xabar bergan edi. Bundan tashqari Z.Sodiqov ushbu nashrning kirish qismidagi ingliz olimi yaratgan tadqiqotning o'zbekcha tarjimasini e'lon qildi.⁴³

Mazkur tarjimani asliyat bilan qiyosiy tahlil etish, mutarjim mahoratining ko'p qirralarini ochib beradi. Bu borada mutarjimning xayot yo'li, ilmiy-ijodiy faoliyatiga nazar tashlash masala mohiyatini bir qadar oydinlashtiradi. "Qutadg'u bilig"dek asarni asliyat tilidan to'g'ridan-to'g'ri ingliz tiliga o'girish tarjimondan uzoq tayyorgarlik, yuksak mahorat, turkiyshunoslik bilimdoni bo'lishni talab etadi.

Asli Nyu-Yorkning Rochester shahrida 1941 yil tug'ilib, voyaga yetgan Robert Dankoff Kolumbiya Universitetida tahsil olgach, 1964 yil Turkiyaga AQShning ko'ngilli vakili sifatida xizmatga bordi va u yerda ingliz tilidan dars berdi. Mutahassisligi sharqshunos bo'lgan Dankoffni qadimiy turkiy obidalar o'ziga mahliyo etgan edi. Bir necha yillik faoliyati davomida Dankoff Turkiyada turkiy yozma yodgorliklar tarixi, badiiyati va matniy hususiyatlari ustida ilmiy izlanishlar olib bordi. 1971-yil Xarvard Universitetida turk va islomiy yodgorliklarni tadqiq qilish bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va doktorlik ilmiy unvonini oldi. So'ngra 1979-yil Chikago Universitetida professor unvonini olgunga qadar Brandeys va Arizona Universitetlarida sharqshunoslik, xususan turkshunoslik bo'yicha talabalarga dars berdi.⁴⁴ U o'zining ilmiy izlanishlarida Usmoniy turk tilidagi yozma yodgorliklarning lingvistik va badiiy hususiyatlarini tadqiq etdi. Shu bilan birga O'rta-Osiyodagi islomiy-turkiy yozma obidalarini o'rgandi. R.Dankoff turkshunoslik sohasida salmoqli

⁴³ Роберт Денкофф. Бахту тахтга элтувчи билим. Инглиз тилидан З.Содиқов таржимаси. Жаҳон адабиёти журнали. Т. 2005 йил ноябр сони. 152-бет.

⁴⁴ <http://humanities.uchicago.edu/depts/nclc/facultypages/dankoff/index.html>

mehnat qildi va soha bo'yicha ilmiy risolalar va jahonning nufuzli ilmiy jurnallarida maqolalar e'lon qildi. Turkshunos olim turli dinlar nazariyasi xususan, Qur'on, xadisdan yaxshi xabardor hamdir. Uning Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni tug'otit turk" asarini hammualliflikda inglizchaga o'girdi⁴⁵ keyinchalik bu ikki obidalardagi turli mavzularni qiyosiy tahlil etdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, R.Dankoff "Qutadg'u bilig"ni tarjima qilishda ko'plab qadimgi turkiy manbalarga tayanib ish ko'rgan. Asar tarjimasiga kirishar ekan, olim mutarjim turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlarini, diniy e'tiqodlarini chuqur o'rgandi va fors, hind, yunon manbalarini ham sinchiklab kuzatdi.

Tarjimon "Qutadg'u bilig" o'ziga xos jihatlari xaqida fikr yuritir ekan, "Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"da Qoraxoniylar davridagi ikki xil Eron-Islomiy va Turkiy donolik an'analarini bir biri bilan omuxtalashtirishga harakat qilgan. Bularning birinchisi o'troq ikkinchisi esa ko'chmanchi xalqlarga tegishlidir. Shubhasizki, ko'chmanchi hayotdan o'troq turmush tarziga o'tish hukmdorlik san'atiga bo'lgan talabni o'zgartiradi chunonchi, "Qutadg'u bilig" g'oyalari ideal hukmdor bo'lish yo'l-yo'riqlarini o'zida mujassamlashtirgan. Shuningdek, Yusuf "Shohnoma"dek asarning Turkiy namunasini yaratish ilinji bo'lganligini ta'kidlaydi. Bu bilan R.Dankoff "Qutadg'u bilig" "Shohnoma"ning ko'chirmasi demoqchimi? Yo'q, albatta. Mutarjim turkiy adabiyotda ikkinchi "Shohnomai Turkiy" yaralganini tan oladi.

R.Dankoff "Qutadg'u bilig"ni 1082 yilda yozilgan "Qobusnoma" va 1090 yilda yozilgan "Siyosatnoma" kabi "Shohlar ko'zgusi" janrida yozilgan asarlar sirasiga kiritadi. Ammo sharqshunos olim Alesio Bombachi "Qutadg'u bilig"ni "Shohlar ko'zgusi" janrida bitilgan asarlardan ayrim jihatlari bilan farqlanishini ta'kidlaydi va ular quyidagilarda namoyon bo'lishini ko'rsatadi:

⁴⁵ Mahmud al-Kashgari, Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lugat at-Turk), edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. Cambridge, Mass. [In: Sources of Oriental Languages and Literatures, ed. Sinasi Tekin.] Part I: 1982 (Pp. xi + 416). Part II: 1984 (Pp. iii + 381). Part III: 1985 (Pp. 337 + microfiche)

- “Qutadg’u bilig”dagi pand-nasihatlar faqatgina shahzodalargagina emas, balki jamiyatning barcha kishilariga qaratilgan. Bu janrda yozilgan asarlarning aksariyatida maslahatlar bevosita shohlar va saroy a’yonlarigagina yo’llanadi.
- “Qutadg’u bilig”ning qahramonlarning ismlari istalgan kishiniki bo’lishi mumkin va bu ismlar hech qaysi bir muayyan tarixiy shaxsning ismi emas.⁴⁶

Bu borada Yusuf Xos Hojib asarda aynan Tavg’och Bug’raxon nomini keltirganini nazardan qochirmaslik lozim.

Shuni alohida e’tirof etish kerakki, “Qutadg’u bilig” o’zining uslubiy jihatlari bilan “Shohlar ko’zgusi” janrini o’zida aks etirsada, unda boshqa xalqlar adabiyotida uchramaydigan ko’plab ajoyib Turkiy fol klor namunalari mujassamlashgan. Olim mutarjim tahlillariga ko’ra asar g’oyalarida Eron-Islomiy va Turkiy an’analardan tashqari qadimiy Grek va Buddaviy donolik namunalarining aksi yaqqol ko’zga tashlanadi.

“Qutadg’u bilig”ning R.Denkoff qalamiga mansub inglizcha tarjimasi o’zining zamonaviy tili bilan ahamiyatli. R.Dankoff tarjimini Turk olimi Rashid Raxmati Arat tomonidan 1947-yil nashr etilgan usmonli turk yozuvidagi tanqidiy matni asosida yaratdi. Tanqidiy matndagi ayrim noaniqliklarga aniqlik kiritish uchun asrning uchta qo’lyozmasi va usmonli turkcha tarjimaga ham murojaat etgan.

“Qutadg’u bilig”ning mazkur inglizcha tarjimasi tarkibiy jihatdan so’zboshi (Preface), shartli qisqartmalar (Abrevetions), kirish(Introduction) matn tarjimasi, birinchi ilova (Appendix 1), ikkinchi ilova (Appendix 2) va izoxlar (Notes)dan iboratdir.

Kirish kismida R.Dankoff asarning o’ziga xos adabiy va badiiy xususiyatlari, uning tarixiy ahamiyati va asar tili haqida o’z fikr mulohazalarini bayon etadi. Asarni tahlil etar ekan, R.Dankoff “Qutadg’u bilig” ma’no va mazmun jihatidan Firdavsiyning “Shoxnoma”si singari ulug’ asardir. “Shoxnoma”da Firdavsiy Eroniy urf-odatlariga yangi forsiy libosni yarashtira olgan va ular islomiy tuyg’ularga uzukka ko’z qo’ygandek mos tushgan bo’lsa, Yusuf janr, vazn va epik uslub tanlashda

⁴⁶ Bombaci Alesio. Kutadgu Bilig haqqinda bazi mulohazalar.- Fuad Koprulu armagani, Istanbul, Osman Yalcin matbaasi, 1953. s. 66.

shubhasiz Firdavsiydan ilhomlanib, asar uchun masnaviy bilan birgalikda qasida janri va mutaqorib baxrini tanlab, yana bir shox asar yaratdi”⁴⁷ deya e’tirof etadi. R.Dankoff “Qutadg’u bilig”ustida uzoq muddat ilmiy izlanishlar olib borib, uning yaratilish tarixi, u bitilgan davr, muxit tarixini chuqur o’rgandi va shu asosida asarni inglizchaga tarjima kildi. Mutarjim Yusuf Xos Hojibning poetik qobiliyatigi yuksak baho berib, kuyidagi fikrlarni keltiradi: “Firdavsiy Eron adabiyoti rivoji va an’analariga qanchalik katta xissa qo’shgan bulsa, Turkiy xalklar va adabiy an’analarida Yusufning o’rni beqiyosdir. Bu islom madaniyati an’analari bilan hamoxang tarzda o’z milliy an’analarini yuksakka ko’tara olishdir. Firdavsiy Eroniy epikani islomiy-forsiy shaklga o’girdi, Yusuf o’z boshlang’ich nuqtasini faqatgina mavjud turkiy an’analardangina emas, balki Arab va Fors adabiyotidan kashf etgan, davlatchilik san’atining Eron-Islomiy na’munalari bilan hamohanglikda boshladi. Uning maqsadi ushbu na’munalar uchun Osiyo-turkiy adabiy me’rosidan munosib joy hozirlash, shu bilan birga turkiy davlat saodati va donolik an’analari Arab va Eronliklarniki bilan teng kuchli, kerak bulsa, a’loroq va Islom bilan hamohang ekanini ko’rsatish edi”⁴⁸. Bular bilan bir qatorda R.Dankoff X-XI-asrlarda yaratilgan pandnomalar, davlatni boshkarish yo’riqnomalari va shu turda yaratilgan asarlarni qiyosiy tahlil etar ekan, “Qutadg’u bilig” barcha jihatlari bilan “Shoxlar kuzgusi” janridagi asar ekanini isbotlaydi. Bir so’z bilan aytganda Yusuf Xos Hojib turkiy adabiyotga yangi janrni olib kirdi.

“Qutadg’u bilig” asarini atroflicha tahlil qilvr ekan undagi donishmandlik xususida R.Denkoff quyidagi fikrlarni keltiradi⁴⁹:

“Qutadg’u bilig”da aks etgan donishmandlik sarchashmalarida asosan Eron manbalari yotar ekan, demakki, unda yunon manbalari ta’siri ham mavjud. Bir qaraganda buni farqlash qiyindek, ko’rinadi. Maslan, harbiylarga naqd pul to’lash, jamoatchilikni dunyoviy qonun yo’li bilan boshqarish islom adabiyotiga Arastu (Aristotel) orqali kirib kelgan. “Qutadg’u bilig”ning 2453-baytida zakovatsiz

⁴⁷ “Wisdom of Royal Glory” Translation with an Introduction and notes by Robert Dankoff. The University of Chicago Press, Chicago 1983. p.36.

⁴⁸ Ўша асар. Introduction. p. 34.

⁴⁹ **Бу ҳақдә қаранг:** Роберт Денкофф. Бахту тахтга элтувчи билим. Инглиз тилидан З.Содиқов таржимаси. Жаҳон адабиёти журнали. Т. 2005 йил ноябр сони. 152-бет.

kishining jonsiz tanaga o'xshatilishi ham Arastuga borib taqaladi. Asarning 620-835 baytlaridagi allegorik bag'ishlovlarning ham yunonoy prototiplari mavjud. Shuningdek, Suqrot (Sokrat) qarashlariga hamonagligini ko'rishimiz mumkin. Yusuf hatto hali keng jamoatchilikka noma'lum bo'lgan ayrim arab va fors traktatlaridan foydalangan. Ma'lumki, yunon donishmandligi (forscha - andarziga) dastlab arab odob va ijtimoiy madaniyatiga kirib kelgan edi. Tabiiyki, Yusuf bundan xabardor bo'lgan. U yunon falsafasi bilan arablar yoki arab yozuvidagi manbalar orqali tanishgan. yevropalik sharqshunos Otto Albertning shahodatlik berishicha Yusuf Xos Hojib buyuk Ibn Sino ning shogirdi bo'lgan (Qarang: 1037-bayt. Lekin, bu hali maxsus asoslashga muxtoj. Chunki, etika, siyosat, psixologik va teologik qarashlar "Qutadg'u bilig"ga nosofistik falsafa bo'lmish "Adab" hamda "Shohg'lar ko'zgusi" vositasida kirib kelgan. Albertning ta'kidlashicha, iqtidorni aniqlash uchun bilim (bilig) va zakovat (ukush) ni bir-biridan farqlanadi (1677 va 1815).

Yusuf Xos Hojib ta'limotiga hamohang g'oyani arab olimi al-Mavardi (d.1058) da ko'rishimiz mumkin. Unda intellekt (al-aql)ning 2 xil ko'rinishi mavjud: tug'ma (qarizi) va o'rganilgan (muktasab). Tug'ma aqli bilan odam hayfonlardan farqlanib turadi (QB – 1843). Keyingisi maxsus o'rganish va tajriba orqali hosil bo'ladi (QB – 1827). Qur'on va hadis bo'yicha zakovat va aql insonni zulmatdan olib chiqadi (QB – 288, 1839). Zakovat gohida yurakda, gohida miyada joylashuvini ta'kidlaydilar (QB – 1836). Kamina Yusuf Xos Hojib mazkur doktrinani aynan al-Muvadi yoki Ibn Sinodan olgan, deb o'ylamayman. Bu aslida uning ijodiga sunniy adab qoidalarini aks ettirgan adabiyot, falsafa orqali kirib kelgan.

"Qutadg'u bilig"ga ellin madaniyati arab adabiyoti vositasida muayyan darajada o'z ta'sirini o'tkazgan. Buni butun Sharq adabiyotiga nisbatan ham aytish mumkin. Asarning uyg'ur yozuvidagi nusxasini Vena nashri deb ham aytiladi. Ushbu ish asar to'g'risidagi keyinchalik jiddiy tadqiqotlar yaratilishiga asos bo'ldi. Shu ta'kidlash lozimki, ushbu nusxa XV asrda Temuriylar tomonidan tiklangan. Ammo, uning uyg'ur yozuvida yozilganligini ro'kach qilib, uni salkam "Uyg'ur xalq eposi"ga chiqarib qo'yildi. "Qutadg'u bilig" siekretik asar. Unda islomgacha bo'lgan turli dinlar to'g'risida ma'lumotlar bor. Asarni jiddiy qilgan olimlar undan konfutsiylik va

budda ta'limoti ham mavjudligini aniqladilar. Saodat Husaynning ta'kidlashicha, O'zg'urmish o'zining asketik qarashlari va tarkidunyochiligi bilan buddizm ta'limotiga yaqin keladi. Xususan, O'gdo'lmish va O'zg'urmish oralaridagi munozara budda va islom dinlari o'rtasidagi ziddiyatli munosabatga o'xshaydi. Bu xususiyat Qoraxoniylar saltanatiga xosdir. Tadqiqotchilarning aytishlaricha, Ugdulmish islom. Uzgurmish esa Budda vakili emish. Bunga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

1. Asardagi deyarli barcha qahramonlarning nomlari ramziy ma'noga ega bo'lib, ular biror-bir tarixiy shaxsga ishora qilinmaydi. Biz bu haqda yuqorida batavsil to'xtalganmiz. Bizga bu o'rinda Yusufning o'zi yordamga keladi. Ya'ni. O'zg'urmish zohidlikni ixtiyor etib, faqat oxiratni o'ylaydi. Aql-zakovatni oldingi o'ringa qo'ymaydi. O'gdo'lmish esa, aksincha aql-zakovat hamisha ustunligini ta'kidlaydi. Tarkidunyochi O'zg'urmishning Ibn Sinoning "Hay ibn Yaqzon" (Uyg'oq o'g'li tirik) asari qahramoni bilan mushtarakligi bor.

2. O'zg'urmish va O'gdo'lmish o'rtalaridagi baxs islom bilan buddizmning ziddiyatli munosabatlarining badiiy talqinidir.

3. Islomdagi asketik va mistik jio'atlarning sarchashmalarida buddizm elekmantlarining mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Albatta, buddizmning dastlabki islomiy sufizmga ta'siri (Ibrohim ibn Odam Ato) hamda turklarning XI asrda Markaziy Osiyodan ko'chib ketishlari alohida masala. Biz O'zg'urmishda ana shu jihatlarning barchasi mujassam, deyishdan yiroqmiz.

Ma'lumki, dunyoviylikni rad qilish buddizmga xos ekanligi sir emas. Aksincha, islomda aql-zakovat, donishmandlik qadimgi yunon, arab-fors falsafalari ta'sirida mujassamlashgan. Agar "Qutadg'u bilig"ga buddizmning bevosita ta'siri rad etiladigan bo'lsa, unda bilvosita arablarning yordamida Barlaam va Yozefat romanslaridagi asketik dunyoqarashdagi shahzodaga e'tibor qaratish lozim. Unda shaxzodadan saltanatni mustaxkamlash uchun konunga amal qilishga da'vat etiladi. shu yusinda yozilgan «Balavxar va Budxasaf kitobi»ning arab tilida yozilgan asliyati yukolgan. Uning Aban al-Loyiki kalamiga mansab boshka bir varianti E Rexetsak tarjimasida saklanib kolgan. Ushbu kitob islom olamida «Zindik» nomi bilan tanilgan. Ushbu mavzu keyinchalik sufiy adabiyotda: Balx shaxzodasi tarixi, Ibroxim ibn

Adxam va arab kechalari ga utgan. Shu kabi arab tilida bitilgan budda tarixiga oid asarlardan bu dunyo va u dunyoga erishish xakida kizmkarli ma'lumotlar olish mumkin.

“Qutadg’u bilig” islom ta’limoti bilan sug’orilgan. Unda islomiy manbalarga bevosita murojaat qilinmaydi. Muallif Yusuf Xos Hojib bu o’rinda o’ziga xos uslub qo’llaydi. U Eron-Islom an`analarini Markaziy Osiyodagi turkiy adabiyotga tadbiq etishga harakat qiladi. Hokimiyatga murojaat uslubida “Shohlar ko’zkusi” janrini qo’llaydi. Bir vaqtning o’zida bevosita islom manbalariga murojaat etmay, arabg’fors adabiy an`analari asosida qalam tebratish turkiy adabiyot uchun yangilik edi. Ikkinchi tomondan asar bevosita turkiyzabon o’quvchiga mo’ljallab yozilgandi. Asarning anashu soxadagi ilk qadam ekanligini inobatga olinsa, mazkur ta’limotni o’quvchiga yetkazish mushkulliklari kelib chiqadi, albatta. Bevosita iqtibos keltirilmasada, quyidagi baytlarda Qur’on oyatlariga ishorani ko’rishimiz mumkin: 1-5, 29, 40, 42, 44, 53, 77, 91, 92, 103, 114, 133, 149, 162, 175, 179, 1999 baytlariga qarang. Xususan, quyidagi namunalar hadis va boshqa islom namoyondalari ta’limotiga hamohang:

“Qutadg’u bilig”ni jahoni keng ilmiy ommasiga tanitish ishi asosan G’arb sharqshunoslari tomonidan boshlab berilgan. Agar bu ishni nemis va rus sharqshunoslari XIX asrning oxirida boshlagan bo’lsalar, asar o’tgan asrning 80 yillariga kelib Amerika adabiy jarayoniga kirib bordi. Robert Dankoffning inglizcha tarjimaviy nashri asarninng nasriy bayoni bo’lib (unda ayrim she’riy parchalar bo’lsada) to’la badiiylikka da’vo qilmaydi. Shunday bo’lsada, har qanday tarjima ijodiy jarayon bo’lib, poetik asarni nasriy bayon etishni ham qadimgi turkiy va ingliz tillarini o’zaro qiyoslash va muqobil so’z tanlash san’atini talab qiladigan jixatlari mavjud. Bular albatta o’ziga xos filologik tahlilni taqozo etadi. “Qutadg’u bilig”ning ingliz tilidagi tarjimaviy talqinini asliyat bilan qiyosiy-tipologik asnoda tadqiq etish mustaqil tadqiqot ob’ekti bo’la oladi.

2007-yilga kelib “Qutadg’u bilig”ning yana bir inglizcha tarjimasi O’zbekistonlik tadqiqotchilar qo’liga tegdi. Bu xayrli ishda adabiyotshunos olim

B.To'xliev, Z.Sodiqov, Q.Sidiqov va A.Xabibullaevlarning xizmatlari katta. Bu xaqda O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasida maqola ham e'lon qilindi⁵⁰.

Kaliforniya akademiyasining Qirg'izistondagi filiali ta'sisshilgida Chingiz Aytmatovga bag'ishlab 1998 yil Moskva-Bishkekda nashr etilgan ushbu kitob "Yusuf Balasaguni "Beneficent knowledge" (Yusuf Bolasog'unii. Saodatga eltuvchi bilim) deb nomlangan. Asar ingliz shoir va tarjimoni Volter Mey tomonidan she'riy tarzda, badiiy tarjima qilingan.

Volter Mey 1912-yil 22-dekabrda Angliyaning Brayten shaxrida ishchi oilasida dunyoga kelgan. U umrining o'ttiz yildan ko'prog'ini Moskvada o'tkazadi va rus shoirasi Lyudmila Serastonovaga uylanadi. Mohir tarjimon bir qancha rus, belarus, ukrain, qirg'iz va dog'iston she'rlarini ingliz tiliga o'g'irgan. Yoshligidan qadimgi turkiy adabiyot namunalari shaydosi bo'lgan V.Mey qirg'iz qaxramonlik eposi Manas va ilk turkiy obida xisoblanmish "Qutadgu bilig"ni to'laligicha she'riy tarjima qilgan. Ta'kidlash lozimki, bu asarning ingliz tilidagi birinchi she'riy tarjimasidir. Kitob 212 saxifadan iborat bo'lib 6646 baytni o'z ichiga olgan (R. Denko'ffda kirish qismidan tashqari 281 saxifa, 6646 ta bayt; Q.Karimovda 964 saxifa 6408 ta bayt). Kitob tarkibiy jihatdan so'z boshi, kirish (2 bob-77ta bayt), "Saodatga eltuvchi" bilim (85 bob-6521 ta bayt), xulosa (3 bob-125 ta bayt), kirishga izoxlar, lug'at va epilogdan tashkil topgan. Mazkur tarjimani har tomonlama tadqiq etish, tarjimaning yutuqlari va kamchiliklarini aniqlash, kelajakdagi nashrlar uchun tavsiyalar taqdim etish tarjima tadqiqotchilari oldidagi asosiy vazifadir.

1.2. Maxmud Koshg'ariyning "Devoni lug'ot-it turk" asari – ilk turkiy yozma yodgorlik

Mamlakatimizda istiqlol tufayli turk ellari adabiyotini yaxlit o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Ma'lumki, kelib chiqishi bir – biriga yaqin, qarindosh

⁵⁰ З.Содиқов, Қ.Сиддиқов. "Қутадғу билиг"нинг янги таржимаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. Тошкент 2007. 6- апрел № 14 (3894). 1-бет.

bo'lgan xalqlarning tarixi, madaniyati, rivojlanishi bir ildizga borib taqaladi. Bu xalqlarning urf – odatlarida, rasm – rusmlarida, xalq og'zaki ijodida bir – biriga o'xshash holatlar juda ko'p ko'zga tashlanadi. Albatta, tarixiy taraqqiyot tufayli, keyinroq ayrim farqlar ham vujudga kelgan. Jumladan, biz o'rganayotgan turk ellari adabiyoti ham xuddi shunday tarixiy taraqqiyotni boshidan kechirgan. XX asr boshlarida ota – bobolari bir bo'lgan turk qavmlarini birlashtirish, ularning aloqalarini mustahkamlash uchun ko'p harakatlar bo'ldi.

Ma'lumki, turkiy qavmlar deganda biz o'zbek, qazoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur, totor, boshqird, chuvash, ozarboyjon, qorachoy, turk, gagauz, qo'miq, balqar kabi o'ttizga yaqin millatlarni ko'zda tutishimiz kerak. Bu millatlar esa Yevro–Osiyo materigining kattagina qismida joylashgan hududlarda hayot kechiradi. Ana shu qarindosh xalqlarning adabiyotini bir butun holda yaxlit o'rganish, ularning ijtimoiy – ma'naviy hayotini yaqindan anglashga yordam beradi. Yuqorida ko'rsatilgan xalqlarning eng qadimgi adabiy – madaniy yodgorligiga e'tibor bersangiz, ularda bir–biriga o'xshash asarlarning variantlariga duch kelasiz. Masalan, “Go'ro'g'li” turkumidagi dostonlarning usmonli turklarda, ozarbayjon, turkman va o'zbeklarda bir qancha variantlari uchraydi. “Alpomish”, “Manas”, “Dada Qurqut” kabi dostonlar haqida ham shuni aytish mumkin. Bunday holatni biz faqat doston janridagi asarlar misolida emas, balki xalq og'zaki ijodining boshqa janrlarida ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan, Nasriddin afandi haqidagi latifalar turk, ozarboyjon, turkman, o'zbek xalq ijodida ko'plab uchraydi. Qadimda kuylangan turli marosim va mehnat qo'shiqlari, maqollar va ertaklar haqida ham shunday holat ko'zga tashlanadi.

X-XII asrlarda yozilgan M. Koshg'ariyning “Devoni lug'atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq” kabi asarlari butun turkiy xalqlarning umumiy adabiy merosi bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, Mahmud Koshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asari faqat lug'at, ya'ni so'zlarining arabcha izohli tarjimasidan iborat bo'lib qolmasdan, balki u arablargacha bo'lgan davrdagi adabiyot namunalarini o'zida jamlab kelgan ajoyib badiiy asar ham bo'lib hisoblanadi. Chunki unda xalq og'zaki ijodiga oid turli maqollar, hikmatli so'zlar,

qo'shiqlar, iboralar, dostonlardan parchalar ko'plab keltirilgan. Olti mingga yaqin turkcha so'zlarga arabcha izohlar berilgan. Ko'pgina turkiy qabila va urug'larning tarixi, etnografiyasi, ijtimoiy – iqtisodiy ahvoli va boshqa tomonlari haqida ham bu kitobda ma'lumotlar beriladi. Ushbu jihatdan bu asar o'z davrining qomusiy asari darajasiga ko'tarilgan. Jahon ilmi va madaniyati tarixida bu xildagi asarlarning dastlabki namunalari sifatida “Devoni lug'atit turk” asari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki bu davrgacha jahon tarixida hych kim tillarni bir – biriga qiyoslab o'rganmagan edi. M.Koshg'ariy bu asarni yozishda juda katta material to'plagan. Sharqiy Turkistondan Kaspiy dengizi bo'ylarigacha bo'lgan hududda yashayotgan turk qavmlarining tilini tekshirdi.

Asar 1076-1077 yillarda yozilgan bo'lib, keyinchalik u uch kitob hajmida chop etildi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” nomli asari ham turkiy tilda yozilgan birinchi badiiy doston bo'lib, u didaktik, ya'ni pand – nasihat xarakteridagi asardir. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarini 1069-1070 yillarda yozib tugatgan, uni qoraxoniylardan bo'lgan Tabg'ach Bug'roxonga bag'ishlagan. Asar aruz vaznining masnaviy shaklida yozilgan bo'lib, 73 bobni tashkil etadi. Bunda ijtimoiy hayotning ko'p tomonlari qalamga olingan. Jumladan, ilm-hunar egallash, til o'rganish va so'zlashish odobi, hokimiyat va hukmdorlar to'g'risida, odob va axloq, ma'rifat to'g'risida bahs yuritiladi. Asarda Kuntug'di, Oyto'ldi, Ugdulmish, Uzg'urmish kabi ramziy obrazlar vositasida muallif o'z dunyoqarashlarini ifoda etadi. “Qutadg'u bilig”da turkiy xalqlarning XI asrdagi tili yaqqol sezilib turadi. Unda arabcha va forscha so'zlar nisbatan oz uchraydi. Bu kitob tez orada katta shuhrat qozondi. Uni “Turkiy Shohnoma” ham deb atay boshladi. Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq” nomli didaktik asari ham umumturkiy xalqlarga tegishli deb qabul qilingan. Kitobning avtori va yaratilgan yili haqida ma'lumotlar nihoyatda kam berilgan. Asarning til xususiyatlaridan kelib chiqib, uni XII-XIII asrlar o'rtasida yaratilgan deb xulosa chiqarish mumkin. Bu kitobda ham odob – axloq, ilm – ma'rifat masalalari ko'tarilib chiqilgan. Shunisi xarakterliki, mazkur asarda din va shariat masalalariga tasavvuf falsafasi nuqtai nazaridan yondoshilgan. Shu boisdan bo'lsa kerak Alisher

Navoiy “Nasoyimul muhabbat” nomli kitobida Ahmad Yugnakiyni mutasavvuf shoirlar qatoriga qo’shadi.

Umumturkiy adabiyotlardan yana biri sifatida “O’g’iznoma” eposini ko’rsatish mumkin. Bu asarda turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixi har bir urug’ning shajaralari ko’rsatilgan. Asarda ko’plab she’riy parchalar ham keltirilgan. O’g’izxonning tug’ilishi bilan bog’liq bo’lgan rivoyatlar, uning davlatni boshqarish, el-yurt obodonchiligi, turkiy xalqlarning mustaqilligi, baxti uchun olib borgan kurashlari tasvirlangan.

Biz bu yerda qadimgi turk eposlaridan ayrimlari haqida qisqacha to’xtalib o’tdik, xolos. Shuning o’zi ham turk ellari qadimdan juda yuqori darajadagi madaniyatga ega bo’lganligidan darak beradi. Bularni jamlab, jahonga ko’rsatadigan vaqt keldi. Yana shuni ham ta’kidlash kerakki, ko’pgina turk olimlari va yozuvchilari o’z asarlarini arab va fors tillarida yaratgan. Bu soha ham chuqur tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Devonu Lug’otit Turk, Mahmud Qoshg’ariyning qalamiga mansub bo’lib, Bog’dodda 1072-1074- yillar mobaynida yozilgan Turkcha-Arabcha lug’atdan iborat asardir. Turkiy tilining ma’lum va mashhur eng qadimgi lug’ati bo’lib, G’arbiy Osiyoning yozma Turkchasi haqida mavjud eng qamrovli va muhim til yodgorligidir. Qo’l yozma nushasi 638 sahifa va 9000 ga yaqin Turkcha so’z va jumlaning tafsiloti bilan birga Arabcha va boshqa tillardagi izohlarini o’z ichiga olgan. Shuningdek Turklarning tarihiga, geografik tarqalishiga, qavmlariga lahja (sheva)lariga va yashahs shart-sharoitalriga oid qisqacha kirish va matnlarni qamragan ma’lumotlar mavjud. Eski (klasik) Arab leksikografiyasi (lug’at ilmi)ning tamoyillariga ko’ra tayyorlangan lug’at, Mahmud Qoshg’ariyning Turkiy qavmlar haqidagi batafsil ma’lumotlari bilan birga, Arab filologiyasi (til bilimi) borasida ham asosli tahsil olganligini yaqqol namoyon qiladi.

Lug’atnig mavjud yagona yozma nushasi 1266-yilda Shomda qaytadan nashr qilingan va 1915-yilda Istambulda Ali Amiri Afandi (1857-1923) tomonidan tasodifan topilgan. (Faqat oldingi asrlarda Antepli Ayniy va Kotib Chelebi ham Devondan bahs etganlar.) Ali Amiri yozmasi 1917-yilda Talat Posho (1874-1921) boshchiligida

Kilisli Rifat Bilgani (1873-1953) nazorati ostida chop etilgan bo'lib, butun dunyo Turkologlarining diqqat e'tiborini o'ziga jamlagan. 1928-yilda Turkolog Carl Brockelmann, tafsilotli izohlari bilan lug'atni Nemischa tarjimasini nashrdan chiqargan. Besim Atalayning zamonaviy (modern) Turkcha tarjimasini 1940-yilda Turk Dil Kurumu (Turk Tili Jamiyati) tomonidan chop etilgan. So'nggi yillarda Robert Dankoffning Devonu Lug'otit Turk tarjimasini, yangi malumotlar natijasida ba'zi muhim izohli o'zgartirishlarga sabab bo'lgan. Mahmud Qoshg'ariyning asarlarini kashfiyoti va nashr qilinishi Turk bilimi (Turkologiya) tarixida yangi bir yo'l ochgan favqulodda hodisa bo'lib hisoblanadi. Mahmud Qoshg'ariyning Devonu Lug'otit Turk Kitobi paytida yozilgan u zamonga nur sochuvchi boshqa bir kitobi yo'qolgan.

Mahmud Qoshg'ariy Devonu Lug'otit Turk kitobiga yozishni shunday boshlaydi: Asragan, qo'riqlagan Tangrining nomi bilan. "Ollohning, davlat quyoshini Turk burchlaridan tug'dirganini va Turklarning diyori ustidagi samoning barcha doiralarini aylantirganini ko'rdim. Olloh ularga Turk ismini berdi. Yer yuziga hokim qildi. Jahon imperiyasi Turk irqidan chiqdi. Dunyo millatlarining tizgini Turklarning qo'lga berildi. Turklar Olloh tomonidan barcha qavmlardan ustun qilindi. Haqdan ayrilmagan Turklar, Olloh tomonidan haq uzra quvvatlantirildi. Turklar bilan birga bo'lgan qavmlar aziz bo'ldi. Bunday qavmlar, Turklar tomonidan har qanday orzulariga yetdi. Turklar, o'z himoyasidagi millatlarni, yomonlarni yovuzligidan himoya qildi. Jahon hokimi bo'lgan Turklarga hamma muhtoj, ularga dardini anglatish, shu tarzda har qanday istak va xoxishlariga erishish uchun Turkcha o'rganishi kerak

Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'ot-it turk" (turkiy tillar lug'ati) asari bilan butun dunyo turkiy xalqlarining boy xalq tilini jamlab o'ziga xos devon tuzdi va bunga mazkur xalqlarning turli lahjalari, urf-odatlariga oid qimmatli materillarni ham kiritib, o'ziga xos qomusiy asar yaratib berdi. Mazkur asar butun dunyo tilshunos va turkshunos olimlarining e'tiboriga tushdi. Jumladan, "Devonu lug'ot-it turk"ni 1982 yilda AQSh Chikago universiteti turkshunoslari Robert Dankoff va Jon Kellilar ingliz tiliga tarjima qilishdi. Asarning har uchchala qismi uning turkcha nashridan amalga oshirildi. Bu xayrli ish tufayli okean orti xalqlari ham Mahmud Qoshg'ariy ijodidan

bahramand bo'lishdi. Hozirda mazkur manbaa tufayli turkiy maqol va hikmatlarni ingliz tiliga tarjima qilish masalasiga oid boy tajriba yaratildiki, tarjimashunoslik fani oldiga bu juda qiziqarli va dolzarb bir masalani qo'yadi.

Mahmud Koshg'ariy XI asrning eng buyuk kishilaridan biridir. Uning "Devonu lug'ot-it turk" asari jahon turkologiya fanining nodir manbalaridan hisoblanadi. Uni tom ma'noda turkshunoslikning lisoniy-adabiy qomusi deb atash mumkin. Ayni paytda ushbu asarda o'sha davr turkiy xalqlarining fol klori, tarixi, mifologiyasi va geografiyasiga doir qimmatli ma'lumotlar berilgan.

"Devonu lug'otit turk" asari dunyo yuzini ko'rishi bilan ilk qomusiy turkshunosga jahon olimlarining nazari tushdi. Bugungi kunga qadar mazkur asar bo'yicha juda ko'p tadqiqotlar yaratildi. Ammo hanuzgacha bu tadqiqotlarni tugallangan darajaga yetdi, deb bo'lmaydi. "Devon" bo'yicha hali munozarali muammolar anchagina. Shulardan biri asarning yozilgan yili bo'yicha. Ayrimlar uni 1072 yilning 25-yanvarida yozishga boshlanib, 1073-1083 yillarda yakunlangan, deyishadi. Shuningdek, asardagi lug'at birliklarining soni 7500dan 9000 tagacha ekanligini ta'kidlashadi.

Mahmud Koshg'ariyning qaysi millatga mansubligi ham juda katta baxslarga sabab bo'lmoqda. Uni ayrim olimlar uyg'ur, turkman, o'zbek, turk yoki qozoqlarning biriga mansubligini aytishadi. Uni turkman ekanligini ham ta'kidlashadi. Ammo biz Mahmud Koshg'ariyning aynan bir turk millatiga mansubligini asosli, deb aytolmaymiz. Chunki u davrda turkiy qabilalar endigina millat sifatida shakllanib kelayotgan edi. Mahmud Koshg'ariy ularni bir maxrajga birlashtirdi. Koshg'ariy yozgan asar tili o'sha davr Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlarning adabiy tili ekanligini yana bir bor ta'kidlash lozim.

Taniqli turkshunos olim E.V.Sevortyan shunday deydi: "Hozirgi zamon turkiy tillarini "Devon" bilan solishtirganda, ular o'rtasida juda katta mushtaraklik borligi tayin. "Hoqoniy" degan atamaning o'zi ham Qoraxoniylarning sultoni Bug'ra Hoqon nomidan olinganligi ma'lum. Professor T.Gadjievning yozishicha, bugungi juda ko'p turkiy tillardagi antroponimlar etnonimlarga aylangan. Shuning uchun ham turk etnoslarini bir-biridan ajratishda qiyinchiliklar kelib chiqib turadi. Masalan,

turkmanlarni “Devon”dagi Mahmud Koshg’ariyning turkmanlar va o’g’uzlar haqidagi fikrlari ko’proq qiziqtiradi⁵¹.

A.K.Kurishjanovning ta’kidlashicha, Mahmud Koshg’ariy tomonidan qipchoq lahjasi deb atalgan so’zlar boshqa turkiy tillarga ham daxldor. Ayni paytda boshqa turkiy lahjalarga daxldor deb atalgan so’zlar qipchoq dialektiga ham taalluqlidir. Bu adolatli fikr.

Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asariga asar muallifining o’zidan boshqa real baho beradigan kishi yo’q. U jumladan, shunday deydi: “Men bu kitobni alifbo tartibida tartib berdim. Unga turkiy xalq maqollari, to’rtliklari, fol klor qo’shiqlari va nasriy namunalardan bezak berdim. Men kitobni o’quvchiga tushunrali bo’lishi uchun undagi tushunilishi qiyin bo’lgan jihatlariga tushuntirishlar berdim. Bunga yillab mehnat qildim. Ayniqsa, donishmandlik xususiyatiga ega bo’lgan maqollarga ahamiyat qaratdim. Ular halqning baxti va baxtsizligi, yaxshi va yomon kunlarini o’zida aks ettirgan bo’lib, uning qadriyatlari darajasiga ko’tarilgan.”⁵²

“Devonu lug’ot-it turk”ning ikkinchi kitobida *qatardi* – *qaytardi* so’zining ma’nolariga izoh berilar ekan, bunda mazkur so’zning *ol atig’ qatardi* – u otini qaytardi yoki yag’i qatardi – dushmanni qaytardi, - kabi ma’nolarda qo’llanilishi bayon qilinadi. Ayni paytda ushbu so’zning qadimgi turk qo’shiqlarida ham ifodalanishidan misol keltiriladi:

“Devon”da:

Ardiy ‘aşin tatur ga’n

Yawlaq yagig qatarga’n

Buynin tutub qadirga’n

Bastiy ulum ‘agtaruv

O’zbekcha tabdili:

Oshini yediradigan,

dushman to’dasini qaytaradigan,

dushman bo’ynini qayiradigan edi,

⁵¹ Махмудов К. Фонетические изменения глухих согласных в языке письменных памятников XI-XIII вв. // Тюркское языкознание. - Ташкент, 1985.

⁵² Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар луғати. – Тошкент: Фан, 1960.

o'lim uni ag'darib yiqitdi.

Mahmud Koshg'ariy bu yerda “*og'zi endi oshga yetay deganda ... o'z maqsadiga yetolmadi*” maqolidan foydalangan. Ayni paytda bu hikmat ostida o'sha paytdagi vatanparvarlik, yurtparvarlik g'oyalari tarannum qilinadi. Xalq o'zining ana shunday asl o'g'lonlarini hech qachon unutmasligi, ular hayotiga achinishii ham aks ettirilgan. Hozirgi o'zbekcha tabdilda to'rtlikdagi vazn, qofiya saqlanmagan. Faqat asliyatning mazmuninigina berilgan. Asliyatdagi aab shaklidagi to'rtlik tabdilda rostmana gap bilan o'girilgan.

Turkchasi:

Ärdi asin taturyän

Yawlaq yayiy qataryän

Boynun tutub qadiryän

Basti ölüm aytaru

Inglizchasi:

Eulogizing a man: “He was one who let his food be tasted, one who turned back his enemies, one who twisted their necks; until death brought him down.”

Ma'nosi:

Maqtalgan kishi: “O'lim uni yiqitmagunga qadar – u o'z oshini boshqalarga ham baham ko'rishga beradigan, dushmanlarini oraqasiga qaytaradigan, ularning bo'ynini qayirib tashlaydiganlardan biri edi”.

Ko'rinib turganidek, inglizcha tarjimada gap bo'laklari turkiy tillarnikiga qaraganda o'zgacharoq. Inglizcha matnda turkiy gap teskarisidan, ya'ni gapning oxiridan boshiga qarab tarjima qilinadi. Ammo asliyatning ma'nosi to'liq saqlangan. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, asliyatdagi to'rtlikda qo'llanilgan bir qator birikmalarni so'zma-so'z zgirilsa ham s mos kelganligini ko'rishimiz mumkin:

Boynun tutub qadiryän - *dushman bo'ynini qayiradigan*- **twisted their necks;**

“Devon”da koturdi (ko'tardi) fe'lga izoh berilar ekan, uning ishtirokida yasalgan – kishi yuk ko'taradi, - deyiladi. Xotinlarning yuk (xomila) ko'tarishiga ham bu so'z ishlatiladi va bu haqda quyidagi maqolni keltiriladi:

Tewe yuk kotursa

Qamich jeme rjterur

Ma`nosi:

Tuya hamma yukni ko'targanda, kapgirni ko'tarishga ham kuchi yetadi.

Bu o'zbek maqollaridan “kerakli yukning og'irlashit yo'q”, “shuncha ishni qilgan bunisini ham qiladi” kabi maqollarga hamma`no ekanligini aytib o'tish lozim. Ayni paytda Koshg'ariyning ushbu maqolidan hali biz bilmagan juda ko'p xalq maqollari variantlari mavjudligidan xabardor bo'lamiz.

Demak, so'zma-so'z tarjimada ham turkiy frazeologik birikmalarni o'girish mumkin.

Qadimgi turkiy maqollarni ingliz tiliga tarjima qilishda asarning hozirgi o'zbek tilidagi S.Mutalibov tomonidan amalga oshirilgan tabdilidan ham foydalanish foydalidir. Asarning kelajakdagi yangi tarjimalarini amalga oshirishda ana shunga alohida ahamiyat berish tavsiya etiladi. Chunki asar yozilgan o'n birinchi asrdagi qadimgi turk tili lug'at xazinasidagi ko'pchilik so'zlar hozirga kelib ma`nosi toraygan yoki kengaygan bo'lishi tabiiy.

II BOB. ShE'RIY ASARLARNI XORIJIY TILLARGA O'GIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

2.1. “Devoni lug'ot it-turk” va “Qutadg'u bilig”dagi tabiat tasviri R.Denkoff talqinida

Turkiy xalqlar qadimiy yozma obidalari uzoq yillardan beri butun jahon ilm ahlini qiziqtirib kelmoqda. Buning yorqin misoli sifatida muhtasham turkiy obida sanalmish Maxmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'ot it-turk” va ilk yozma obida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarlarini ko'rishimiz mumkin. Ushbu noyob yozma obidalarni tadqiq etish ishlari bizdan ancha avval yevropa olimlari tomonidan

boshlangan edi. So'nggi yillarda mazkur yodgorliklarni ilmiy tahlildan o'tkazish, zamonaviy o'zbek kitobxoniga yetkazish yurtimizda anchagina avj oldi. Bu ishda adabiyotshunos, tilshunos, fol klorshunos, tarjimashunos va boshqa olimlarimizning xizmatlari katta. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib bu asarlardan inglizzabon xalqlar ham bahramand bo'la boshladilar. Chikago universiteti professori, turkshunos olim Robert Denkoff "Devoni lug'ot it-turk" va "Qutadg'u bilig"ning ilk inglizzabon tadqiqotchisi va tarjimonidir. U birinchi bo'lib ushbu asarlarni ingliz tiliga o'girdi. Asli AQShning Rochester shtatida tug'ilib voyaga yetgan, Kolumbiya hamda Narvard Universitetlarida ta'lim olgan R.Denkoff o'z ilmiy faoliyatini turkiy xalqlar yozma obidalarini o'rganishga bag'ishlab kelmoqda Mazkur masalalar bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va professor unvoniga ega bo'ldi. Uning ilmiy faoliyatida "Qutadg'u bilig" muxim o'rin egallaydi. U asarni ingliz tiliga tarjima qilish bilan bir qatorda uning matniy muammolari ustida ham salmoqli izlanishlar olib bordi. U asar tadqiqi yuzasidan o'ttizdan ortiq ilmiy maqolalar va bir qator risolalar e'lon qildi. Mazkur asarlarni qo'lyozmalari bilan solishtirib, ularni chuqur ilmiy tahlil etdi. Quyida AQShda "Sharqshunoslik jamiyati jurnali"da R.Denkoff tomonidan e'lon qilingan maqolaga e'tibor qaratmoqchimiz. Mazkur ishda R.Denkoff Qoraxoniylar davrining ikki buyuk yodgorligi Maxmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ot it-turk" va Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlaridagi tabiat hodisalarini badiiy tasvirini qiyosiy tahlil etgan. Olim mavzuni qiyosiy tahlil etar ekan bu ikki asardagi tabiat tasvirining o'xshash va farqli jihatlarini ochib beradi. Ayrim so'zlarning asli qanday ma'noda qo'llanilganini tegishli misollar yordamida ko'rsatib beradi. R.Denkoff turkiy yozma obidalarining nafaqat tarjimoni balki ularning kuchli tadqiqotchisi hamdir. Uning e'lon qilgan ilmiy ishlar jahondagi ko'plab turkiyshunos olimlar uchun foydali ilmiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Quyida mazkur maqoladan parcha ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib berilmoqda.

Mahmud Qoshg'ariy o'zining «Devoni lug'ot it-turk» asari uchun she'riyatning o'ziga xos janrini tanlagan va unda xalq maqol va matallaridan keng foydalanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Asardagi she'riy shakllar rang-barang bo'lib ular o'zida qadimgi turkiy xalq og'zaki ijodi namunalarini to'laligicha namoyon eta olgan va

uning she'riy strukturasi ananaviy turkiy she'riyatning barmoq vazniga asoslangan. Shuni ta'kidlash joizki u o'sha davr madaniyatining shunchaki mahsuli bo'lmay, mohiyat jihatidan dunyoviylikka asoslangan va o'zida ba'zan Arab-fors adabiyoti an'alarini ham namoyon etadi. Biroq, unda XI asr Qoraxoniylar davri adabiy ananalari yetakchilik qiladi. Sohib yuborilgan misralarni mazmun va mohiyat jihatidan turli mavzuli qismlarga ajratish mumkin. Bular umumiy qofiya, misra va mavzuga ega bo'lgan bandlar to'plamlaridir. Asarda bir banddan tortib o'n olti bandgacha bo'lgan 54 ta mavzuli turkum mavjud. Biz undagi turkumlarning taxmini miqdorini aniqladik: 54 parchadan 18 tasi (33%) she'riy pandnomalar; 11 tasi (20%) urush bilan bog'liq va 8 tasi (15%) sevgi, 6 tasi (11%) tabiat, 11 (20%) parcha aralash ya'ni marsiya, madhiya, ovchilik va boshqa mavzularda bitilgan. Tabiatga bag'ishlangan oltita bobdan ikkitasi Bahor madhi, bittasi Qish va Yoz munozarasi; bittasi Osmonning yaratilish tasviri, yana biri tundagi yulduz va qushlar maqtoviga hamda bir turkum Vol ga daryosi tasviriga bag'ishlangan.

“Qutadg'u bilig” Islomiy-Forsiy “shohlar ko'zgusi” an'anasida bitilgan yirik didaktik dostonidir. U mazmun jihatidan davlatni idora qilish to'g'risida bo'lib o'zida asar yaratilgan davr madaniyatini to'laligicha namoyon etadi. U xajm borasida «Devoni lug'ot it-turk»dan kichikroq. Bu asar ahloq-odob, inson xulq-atvori va davlat yuritish ishlari haqida bo'lganligi bois unda tabiat mavzusiga bag'ishlangan baytlar bir qadar kam. Ammo shunga qaramay “Borliqni yaratilishi va Osmon tasviri” “Bahor madhi” kabi boblarning mavjudligi ayni tahlil etilayotgan mavzu uchun yetarli manba bo'la oladi. Asarda inson, tabiat va hayvonot olami o'rtasidagi uyg'unlik yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Masalan, podsho turli o'rinlarda arslonga (784-4098), quyoshga (5339) olovga (4087), dengizga (5356) va tog'ga (5357) qiyos qilinadi. Quyidagi to'rtlikda muallif insonlar o'rtasidagi samimiy munosabatni tabiat hodisalari bilan uyg'unlikda tasvirlaydi:

yağiz yer yaşil suv yaraştı bile
ara ming çiçekler yazıldı kule
yaraşık yorisa kâdaş ya adaş
olardın bolur kâp kâdaş kâ bile (3212-3213)

Bo'z yer va moviy suv kelishdi,
Ular o'rtasida minglab gullar o'sadi.
Birga yurib, birga ishlaydigan do'stlar,
Bir qorindan tushgan aka-uka kabidir.

Endi «Devoni lug'ot it-turk» va «Qutadg'u bilig»dagi tabiat bilan bog'liq unsurlar bo'lmish borliq, tungi qush va yulduzlar hamda bahor madhi kabi uchta mavzuni kiyosiga to'xtalsak.

«Devoni lug'ot it-turk» quyidagi tartibda qofiyalangan va ikki banddan iborat misralar bor.

417 törüt tengri ajun törütti
 çıgrı ediz tezgınür
 yulduzlari çerğeşip
 tün kün üze yörğenür

“Xudo dunyoni va osmonni, baland, (doim) aylanib turuvchi qilib yaratdi, yulduzlarni safga tortdi va tun kunga almashib turadi.”

166 çeş yaratti yaşıl çeş
 sawurdi ürüng kaç
 tizildi kara kuş
 tün kün üze yörğenür

“Tangri osmonni xuddi och yashil gavhar singari yaratdi. Unga moviy toshlar kabi yulduzlarni ekdi va Tarozi burjini yaratdi, navbatma–navbat tun va kun almashadi.

Timsollar ajoyib. Yulduzlar xuddi urush maydonida saf tortgan askarlarga o'xshatiladi. Bu turkiy jang sa'atidagi mashhur “yulduzlar safi” taktikasini yodga soladi. Yulduzlar (misoli) gavhar tosh (osmon) yuzidagi nuqtalardir. Ikki bandning ham so'ngi misrasi bir xil. Buning sababi matnning xato ko'chirilganligi yoki muallifning o'ziga xos uslubi bo'lishi mumkin. Nazarimizda bu ikkala holatda misralar Qoshg'ariyning Qur'ondagi (yukaw-wiru 1-layl 'ala n-nahar) va (yatakawwaru

mayl 'ala n-nahar)ni tarjimasi bo'lishi mumkin, chunki Qur'onda shunday misra bor (39:5).

“Qutadg’u bilig”ning kirish qismlaridan birining (Etti sayyora o’n ikki burj haqida) mazmun uslubi «Devoni lug’ot it-turk”dagi misra uslubiga juda yaqin:

yaratti kör evren tuçi evrilüir
aning birle tezginç yime tezginür
yaşil kök yaratti üze yulduzi
kara tün törütti yaruk kündüzi (126-127)

“Dunyoni aylanadigan, osmonni o’zgaruvchan qilib yaratdi. Ko’m ko’k osmonni yulduzlari bilan yaratdi, qorong’u tun bilan yorug’ kunni yaratdi.”

Keyingi mavzu uyqusiz tun mavsumi bo’lib u «Devoni lug’ot it-turk” quyidagicha tasvirlangan:

530 sayraş yaruk yulduz tuğarda
odnu kelip baķar men
satulayu sayraşip
tatliğ ünin kuş öter

“Eng yorug’ yulduz ko’tarilganda men uyqudan uyg’onaman va daraxtlarga, qushlarning shirin kuy bilan sayrashiga qarayman”.

Bu “Qutadg’u bilig”da O’gdulmishning uyqusizlikdagi azobli tunlari tasvirini yodga soladi. Shu o’rinda Yusuf Xos Hojibda uyqusiz tunning uchta tasvirini ko’ramiz.

Birinchisida faqatgina yulduzlar bor (4888-90).

“Bir oz uxlab u uyg’ondi Mars markazdan pastga tushdi. Yana kuzatib Xulkar ko’tarilganini ko’rdi va Chayon (Aqrab – Q.S.) qarshi tomonda ko’tarilayotgan edi. U anchagacha yotdi, ammo uxlolmadi, uning ko’zlari xuddi qorovulnikiga o’xshab yopilishni istamasdi.”

Ikkinchisida faqat bir qush bor (4963-5).

“Sariq bulbul sayrashni boshladi. U cho’chib uyg’ondi va bir oz o’sha shirin ovozni hayrat bilan tinglab yotdi. Uyquasi qochdi, tun juda uzun edi. U tongning tezroq otishini orzu qilib yotdi”.

Uchinchisida yulduzlar va qush bor (5674-7):

U yana ko’zlarini yuma olmadi, ammo xayolga cho’mib, g’amgin xolda uyg’oq yotdi. Kuzatib yotar ekan yerdan ko’tarilayotgan alanga singari qora qush sharqda paydo bo’ldi. Keyin Sirius (Mushtariy) Ayg’ir bilan charaqladi, Egizaklar (Me’zon) ularning yoniga tizildi. So’ngra tong qushi osmonda parvoz qildi va Isrofil she’rini aytayotgandek sayraydi.

Bu epizodlarning uchinchisining tarjimasida ayrim muammolar bor. Tong qushi Aratdagi “süğüç”ning tarjimasidir, ammo u alohida ko’rsatilmagan. Bizningcha, u yulduzning nomi emas, balki bulbuldir, chunki “Qutadg’u bilig”ning ko’p joylarida “o’sha qush (sandvaç) tunu – kun Suri Ibri aytib ming xil kuy chalishi” keltirilgan.

«Devoni lug’ot it-turk»dagi yoz va qish o’rtasidagi muloqotga nazar tashlaymiz. “Qutadg’u bilig”da bunga muqobil bayt mavjud emas. Qoshg’ariyda ushbu muloqotga asoslangan sakkizta band bo’lib ulardan ikkitasi tabiatga kirish (DLT, 90 ut: 317 qariş) uchasi yoz va qolgan uchasi qish tasviriga bag’ishlangan.

“ Yoz qishga aytadi: “Sa’va qushi sendan qochadi, qaldirg’och menda dam oladi, bulbul shirin qo’shig’ini kuylaydi, nar va moda juftlashadi” (264 sanduvaç-523 sanduvaç). “Sovuq kelganida u dunyoni qamrab oladi, rohatbaxsh yozning hasadi keladi, qor borliqni yashiradi, tanalar qaltiraydi va titraydi”. “Tuproq va loy uyiladi, nochor faqir cho’kkalab o’tiradi va bukchayib oladi, uning barmoqlari shafqatsiz sovuqdan yoriladi, u olovga toblanib o’ziga taskin beradi (129-30 oğrul).

“Qish yozga aytadi: odamlar va otlar menda shijoatga to’ladi, kasalliklar chekinadi, odam tanasi va muskullari mustahkamlanadi” (566 tawra) “Qishda qor va yomg’ir yog’adi bu urug’ning o’sib chiqishi uchun foydali, men bilan adovatli g’anim urushini to’xtatadi, qachonki sen kelganingda (Ey, yoz senda) u qo’zg’oladi” (369 tepreş). “Senda chayonlar, pashshalar, chivinlar (zararli qurtlar) va ilonlar uyg’onadi, ular dumlarini tugadilar va hujum qiladilar” (605 singek).

Shunday qilib yoz qishning izg'irinli ob-havosini koyiydi. Qish g'azab bilan ta'kidlaydiki, sovuq faqatgina mavjudodlarga ozor beruvchi emas balki zararli mavjudotlarning hujumlaridan va tajavvuzkor qo'shinlarning bosqinini to'xtatishi uchun odamlarga yordam beruvchi fasldir (E'tibor qiling hashorotlar va zararkunandalar "dumlarini tugib", xuddi otliqlar o'z otlarining dumini tugib qo'yganday).

Misralarda Qoshg'ariy odob – ahloq qoidalarini tasvirlashni bosh maqsad qilgani ayon va ularda muallif bevosita kitobxonga murojat qiladi.

60 – 1 Bahor boshlandi, jilvalanib turgan suv qorni eritdi.

Yarqiragan yulduz ko'tarildi, mening so'zlarimni kulmasdan eshit.

72 uçmak Turfa xil gullar ochildi va parcha gilam to'shaldi, jannat yeri ko'rindi; (fasl shunday to'kis bo'ldiki) sovuq hech qachon qaytib kelmaydigandek.

178-9 bulut. Bulut chaqmoq bilan keldi, yomg'ir va do'l yog'moqda, shamol uni hohlagan tomoniga uchirmoqda, hech kim uni qaysi tomonga ketishini bilmaydi.

446-7 ym. Qushlar va hayvonlarning barchasi hayotga qaytdi (bahor shabadasi esganda) va keng yoyilgan hayvonlar to'da tashkil etib erkagi va urg'ochisi birlashdi, ular qishki joylariga kirmaydilar.

515 yay. Bahorga bog'lanma (yoki uning chechaklar va tiniq ranglaridan yaxshilik umid qil), suvga suyanma (Bu dunyoning yaxshi narsalaridan va bahor shabodasidan roxatlanishga o'rganib qolgan kishi suvga suyanuvchi kishidir), o'zingni yomonlikka shaylama, ammo tilingdagi so'zlarni chiqar (agar u inson ko'nglini ko'taruvchi bo'lsa).

Yuqoridagi misralarda tabiat bilan bog'liq asosiy uchta mavzu o'z ifodasini topgan, ya'ni qor erishi va suv toshqini; bulut ko'tarilishi va dovul hamda gullar va hayvonlar. Bunday bir-birini to'ldiruvchi mavzular "Devoni lug'ot it-turk"dagi Bahor madhiga bag'ishlangan boshqa bir misralarda ham ko'zga tashlanadi. U o'n besh banddan iborat bo'lib, ular ham "Yoz va qish o'rtasidagi munozara" kabi qofiyalangan

“Bahor kelishi bilan tog’larda qor va muz eriydi (120 akış); kuchli oqim ingragan tovush bilan yopirilib keladi (461 yağmur), anhorlar toshadi va soylarda tog’larning aksi ko’rinadi” (99 ıler-q404 qaq). “Vodiylerden oq va kul rang bulutlar ko’tarilib qayıqqa o’xshab osmonda suzib yuradi (102aqış); yoki yana ular to’r singari osmon bo’ylab tarqaladi, (461 yağmur) keyin to’planadi va qora tusga kiradi, ayni paytda oy quturayotgan dovuldan nur oladi (133-34 örten); chaqmoq chaqadi va qirovli tuman ko’tariladi (124-5 oqraş-) nihoyat, bulutlarning gulduragan toshqini yetib keladi va yomg’ir yog’ib yuboradi (133-4 örten); odamlar chaqmoqdan lol qoladilar(617 tanglaş); ular uylariga kirib, izg’irindan titrashadi”(378 kökreş-qad).

“Lekin bahor zaminga iliq shabadani ham olib keladi (99 ıler-q qaq); tog’ cho’qqilari yashil rangga kiradi xuddi o’tgan yilgi qurigan o’simliklar yangi barglar bilan bezangandek (308-9 köşer); uzoq vaqt yer tagida chidam bilan yotgan kurtak va gullar barg yozish uchun saf tortishadi (123 ıdrış); yoki ularning ko’pchiligi sog’inishganday bir joyga to’planadi, ularning g’unchalari ochilmagan tugunchaga o’xshaydi va ochilishga shay turadi(219 tügsınq 408 boquq); endi ochilgan g’unchalar xuddi marvaridga o’xshab oshkora yashnab bo’y ko’rsatdi va mushki anbardek iforini atrofga taratdi (329-30 suçul); odamlar bu go’zallik va turli ranglardan, ularning qizil va sariq, jigarrang va yashilligidan hayratlanadilar(199 qızıl).

Asarda bahor kirib kelishida hayvonlarda ro’y beradigan o’zgarishlar ancha dramatik uslubda berilgan.

“Sigirlar, xo’kizlar suv va o’tlarning serobligidan ma’raydilar (308-9 köşer); ohu va qulon uyg’onadi, erkak va urg’ochi juftliklar saflar tashkil qiladilar, yozning ko’m – ko’k o’tloqlariga yugurib, sakrab borishadi (115 emit); sovliqlar qo’chqorlardan ajratib qo’yilgan va sog’ilmasdan qo’zilar bilan birga yayramoqdalar. (486-7 yamraş); Mollar sakrab yuradilar va semiradilar, Beklar endi semiz otlarni topadilar va otlar bir-birlarini quvonch bilan tishlaydilar(145 atla); ayg’irlar, biyalar bilan to’da hosil qiladi va ular bahor belgisini ko’rib kishnaydi”(124-5 oqraş).

Garchi misralar tuzilishiga ko’ra bir birini to’ldirib kelsa ham obrazlar turli mavzularni ochib beradi, ya’ni inson, tabiat hodisalari va xayvonlar bilan bog’liq

obrazlar bir biri bilan uyg'unlikka kirishadi. Muallif bu borada ajoyib so'zlardan foydalanadi. Mana bunga ikkita misol: 387 kökreş – Keldi esin esnayü

q 508 qad Kadka tükel osneyü

Kirdi bodun kasnayu

Kara bulit kökieşür

“Shamol esa boshladi, bu bo'ronga o'xshardi va odamlar sovuqdan qaltiray boshladilar, qora bulut gumburlardi.

124-5 oqraş Yaşın atip yaşnadi

Tuman turup tüşnedi.

Adger kisır kışnedi

Ögür alip okraşur

“Chaqmoq chaqdi, tuman tushdi, ayg'irlar va biyalar (bahorning belgilarini ko'rgach) kishnay boshladi, ular birgalikda bo'kirishdi (quvonchdan) va har bir ayg'ir podasiga o'zining biyasini tanlaydi.

“Qutadg'u bilig”dagi bahor tasviri obrazlari “Devoni lug'at it- turk”dagidan farq qiladi. Ularda voqeaviy qismlar yo'q, lekin mavzu to'la yoritib berilgan. Bahor tasvirining asosiy mavzusi podshoxga o'qilgan xamdu sano bilan bevosita aloqador. Madh o'n bir bandli kirish qismining to'rtinchi bandida berilgan bo'lib, keyingi bandlar Olloh, payg'ambar, to'rt chahoryorlarga hamd, nafs, tilning xususiyatlari, hunar, bilim va zakovatning foydasi, muallif uzri va kitobga nom berilishi kabi qismlardan iborat. Frantsuz olimi S.X.Fouchekur turkiy she'riyat xususan uch buyuk G'aznaviy davri shoirlari: Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriylar devonlarining tuzilishi yuzasidan maxsus tadqiqot olib borgan⁵³. Uning taxlillariga asoslanilsa, “Qutadg'u bilig”dagi “Baxor tasvirida” tarkibi va obrazlar xususiyatiga ko'ra forsiy lirik she'riyat, xususan, G'aznaviylar davri she'riyati an'analarini ko'rish mumkin ya'ni:

Bahor elchisi, ya'ni qorni haydovchi mayin shaboda (63) iporga qiyoslanadi va u o'zidan yoqimli xid taratayotgan yerni ifodalaydi, u mushkka ham qiyoslanadi. Borliq rang – barang gullar bilan bezangan, bu bezaklar tiniq ranglar bilan jilolangan

⁵³ C-H. de Fouchecour, La description de la nature dans la poesie lyriqueS persane du XI sikle: Inventaire et analyse des themes. Paris: Klincksicck, 1969.

ipak matoga qiyoslanadi (68). Kurrai zaminning bahorda yangi hayot boshlashi qari ayolni qaytadan yosharish va shahzodasiga munosib qayliq bo'lish uchun yasanib olishiga nisbat beriladi, bu saxiy taqdir obrazidir (84-85). Qushlar o'z tillarida qo'shiq kuylaydilar (72-78). yer kulishi uchun osmon yosh to'kadi (80). Bahorgi to'fon shahzodaning janggoxdagi holati va uning davlat boshqaruvdagi dovrug'ining obrazli tasviridir (86-88). Bahorning sovg'asi o'tkinchi biroq shahzodaning dovrug'i va davlati abadiydir (112-115). Mayli, shahzoda o'z davrini, saodatini uzoq vaqt, tabiat turguncha sursin va bahorning kelishiga shukrona keltirsin" (118-121).

Amerikalik turkshunos J.Klintonning Navruz qasidasi tuzilishi yuzasidan bildirgan fikriga ko'ra turkiy bag'ishlovlarda Nasib yoki muqaddimada bahorning kelishi tasvirlanib Madhga qo'shiladi va Gurizgohda podshohning nomi tanishtiriladi, she'rning oxirida podshoh xaqqiga duo qilinadi Manuchehriy qasidasida umumiy metoforik birliklar yo'q va ayrim tasodifiy istisnolardan tashqari bir she'rda nasib va madh o'rtasida bog'liqlik mavjud emas. Xech bir qush gurizgoh tepasidan uchib o'tib sultonning taxti ustiga in qo'ymaydi⁵⁴. Ammo "Qutadg'u bilig"dagi Bahor madxida qushlar shunday qiladilar (193-3).

"Haqon taxtni egallganda dunyo yengil nafas oldi va uni go'zal hadyalarga ko'mishni boshladi. Qushlar kelib qo'ndilar, ba'zilar Xind Rajasidan boshqalari TSezar tomonidan yuborilgan va iftixor, quvonch bilan safni to'ldirdilar, uning ismini aytib madhiya kuyladilar".

Shubhasizki, bu holat Yusufga tanish bo'lgan, chunki bahor kelganda bir- biriga shohona sovg'a sifatida qush sovg'a qilish qoraxoniylar saroyida mavjud bo'lib bu odat g'aznaviylar saroyida bo'lmagan. "Qutadg'u bilig" ning boshlanish qismida zikr etilgan qush ya'ni "yovvoyi chumchuq"(qil)dir va Qoshg'ariyda "qil qudruc" "yovvoyi chumchuq" mavjud. Ushbu so'zga «Devoni lug'ot it-turk»da mana bunday izoh beriladi: "Bu bahorning ilk kunlarida keladigan o'rdakka o'xshash (b'lib), Beglar bir-birlariga sovg'a sifatida xadya etadilar".

Nasib va madh o'rtasida metaforik birlikni tashkil etishda faqatgina qushlar tashkil etmagan, balki gullar va hattoki dunyo ham inson qiyofasini aks ettirgan.

⁵⁴ J. W. Clinton, *The Divan of Manuchihri Damghani: A Critical Study*. Minneapolis: Bibliotheca Islamic, 1972

Nihoyat, sheʼrdagi madh va duodan avval Yusuf shohona sovgʻalar sirasiga oʻzining “Qutadgʻu bilig”ini ham kiritadi (112-3) va tabiat sovgʻalaridan farqli oʻlaroq uning tilaklari umrboqiyiligini taʼkidlaydi.

2.2. Badiiy tarjimada vazn va qofiyani qayta yaratish muammolari

Taniqli adabiyotshunos olim H.Boltaboev asosli taʼkidlaganidek “Sheʼrdan maqsad “vaznu qofiya” kabi shakliy birliklar emas, balki sheʼr qalbidagi haqiqatning sheʼrxonga koʻchishidir”⁵⁵

“Qutadgʻu bilig” sheʼriy shaklda bitilgan didaktik doston. Undagi sharqona pand-nasihatlariga berilgan poetik shakl muallifning yuksak mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi. Maʼlumki, “Qutadgʻu bilig” masnaviy shaklida, aruzning mutaqorib bahrida bitilgan. Taʼkidlash joizki, “Qutadgʻu bilig”ning janr xususiyatlari haqida bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Bu borada adabiyotshunos olim B.Toʻxliiev izlanishlarini alohida taʼkidlash lozim. Mavzu boʻyicha olim eʼlon qilgan risolada asar poetikasi xususida tahliliy xulosalar chiqarilib, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig”ida boshlangan mazkur sheʼriy shaklning “Xibat ul-haqoyiq” Ahmad Yugnakiy, “Muhabbatnoma” Xorazmiy, “Yusuf va Zulayho” Durbek, “Hamsa” Navoiylarda davom ettirilganligi koʻrsatib oʻtiladi. Eʼtirof etish kerakki, Yusuf Xos Hojib turkiy sheʼriyat asoschilaridan sanaladi. Bu borada bir qator tadqiqotlarda ham fikrlar keltirilgan:

“Hibbat-ul haqoyiq”dan ayrim baytlar oʻrni-oʻrni bilan Adib Axmadning Yusuf Xos Hojib fikrlariga tayanganligini isbotlaydi.”⁵⁶

Toʻrtliklar mustaqil, mazmunan tugallangan sheʼriy shakl boʻlib, ularda fikr ixcham, loʻnda ifodalanadi. Toʻrtliklar turkiy halqlar fol klorida qadimdan keng

⁵⁵ Болтабоев Х. Темур сағанасини излаб. / Фитрат ва жадидчилик. Т.: Ў-н миилый кутубхонаси. – Б. 89.

⁵⁶ Маматкулов М Қадимий туркий адабиётда жанрлар поэтикаси. Ф.ф.н илмий даражаси олиш учун ёзилган дисс. Т. 2004. Б. 42

qo'llanilib kelgan. Halq qo'shiqlarining asosini to'rtliklar tashkil etishi fikrimizga dalil bo'la oladi. Turkiylar Islomni qabul qilgach, yozma adabiyotda aruzning mavqei ko'tarila bordi va u turkiy she'riyatning asosiy vazni bo'lib qoldi. Bu xodisa she'riyatning shu davrdagi ehtiyoji bilan baholanadi.

To'rtlik xaqida gapirganda uni boshqa janrlardan farqli jihatlariga ham e'tibor qaratish lozim. "Masnaviydan farqli o'laroq to'rtlik bandda qofiya tartibini turlicha o'zgartirish imkoniyati bor. Shuning uchun to'rtlik bilan yozilgan asrlarda shoirlar o'zlarini ancha erkin his etadilar va faqat qofiyadagina emas, vaznda ham yangi turlar yuzaga keltirishga tirishadilar."⁵⁷ Xususan, "Qutadg'u bilig"dagi masnaviy va to'rtliklar o'rtasidagi farqlar hamda ularning biri-birini semantik jihatdan hamohangligi quyidagilarda ko'rinadi:

- Asar masnaviylari misralaridagi voqealar rivoji, semantik detallari turlicha tavsiflanadi.
- Ularning baytlari bir biri bilan qanday bog'lanishiga qaramay ularning ritmik va ma'no xususiyatlari yaxlitlik va tugal natijaga ega.
- Misralarni o'zaro qanday tuzilishidan qat'iy nazar ritmik, sintaktik va mazmun xususiyatlariga ko'ra umumiylikni, nisbiy tugallanganlikni ifodalaydi.
- Masnaviyda butun mazmun o'zaro qofiyalangan baytlarda, ya'ni ikki qatorda o'z ifodasini topadi.
- "Qutadg'u bilig" masnaviylarida ma'lum fikr qayd etiladi, o'rtaga chiqariladi.
- To'rtlikda o'sha fikr kengaytiriladi, chuqurlashtiriladi, kerak o'rinlarga ma'lum aniqliklar kiritiladi.
- To'rtliklar masnaviydagi qikrlarni aniq dalillar bilan isbotlaydi.
- "Qutadg'u bilig"dagi to'rtliklar kompozitsion semantik xususiyatlarga ko'ra o'ziga xos tiplarga ega. Bu tiplar ruboiyning ayniqsa, *aaba* shakliga yaqin. Asar to'rtliklaridagi bu tomonlar uni xalq og'zaki namunalari bilan ham yaqinlashtiradi. "Qutadg'u bilig" dagi to'rtliklarda baytlar bir-biridan ajratilsa ularning she'riy jozibadorligi va fikrning o'quvchiga ta'siri susayadi, hattoki yo'qoladi.

⁵⁷ Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Т., "Ўқитувчи" 2005. 6.233

Asarning “Oyto’ldi o’zi davlat ekanini aytadi” bobida mana bunday misralar bor:

- 625 Bar ersa yazuqum qo’na erk senə
Yoq ersə yuzuhni qarartma menə.
626 Neku ter eshitgil uqush mehzetu
Qo’yas ma`ni birlə ahar yanzatu.
627 Tapug’cho’ yaho’lsa oqo’g’u kerək
Nekukə yaho’lmo’shno’ sorg’u kerək
628 Yazuqo’ bar ersə qo’nag’u tutub
Yoq ersəmin edgun avo’tg’u kerək

Gunoxim bo’lsa, qiyna, erk senda,
Agar yo’q bo’lsa, menga yuzingni burishtirma.
Zakovat bunga moslab nima deydi, eshitgin,
Majoziy mazmun bilan unga o’xshatib (nima deydi).
Xizmatkor yanglishsa, uni chorlash kerak,
Nima sababdan yanglishganini so’rab bilish lozim.
Gunohi bor bo’lsa, tutib jazolash kerak,
Agar yo’q bo’lsa, ming xil ezguliklar bilan xursand qilish kerak (625-628)⁵⁸

Keltirilgan misoldagi birinchi va ikkinchi baytlar alohida holdagi masnaviylar bo’lib, ular kompozitsion jihatdan xizmatkorga qanday munosabatda bo’lish xaqidagi to’rtlikda bildirilajak fikrning boshlang’ich nuqtasidir. Keyingi baytlar yaxlit bir to’rtlik va u masnaviyda keltirilgan fikrni semantik jihatdan to’ldiradi hamda masnaviydagi mazmunni isbotlab beradi. Masnaviy o’zaro *aa,bb* to’rtlik esa *aaba* tarzida qo’fiyalangan.

“Qutadg’u bilig” to’rtliklarini inglizcha tarjimalarini qiyosiy tahlil etish yangi ilmiy xulosalarni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi baytni R.Denkoff tarjimasini:

⁵⁸ Юсуф Хос Ҳожиб Қутадғу-билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилида тавсиф Қ. Каримовники. Т.: Фан 1971

The wayward servant should be called
And questioned on his fault:
If guilty, punished; but consoled,
With countless gifts if not.

Mazmuni:

(Itoatsiz xizmatkor chaqirilib,
Aybi uchun so'roq qilinishi kerak.
Aybdor bo'lsa jazolash, aybsiz bo'lsa,
Cheksiz sovg'alar bilan siylash kerak.)

Mutarjim baytni Erkin vazn (Free verse)da o'giran va u bunga xaqli. Tarjimada misralar o'zaro (*abab* shaklda) qofiyalanib kelgan. Muayyan baytning ma'nosi tarjimada ham saqlangan. Tarjima qonuniyatlariga ko'ra, she'r tarjimasida "qofiyani qofiyalab" o'girish amri mahol va hattoki buning iloji yo'q. Shu bois tarjimada qofiyadosh so'zlar o'zgargan. Asliyatda qofiya *kerak-a, kerak-a, tutub-b, kerak-a* tarzida bo'lsa, inglizchada *called-a, consoled-b; fault-a, not-b* shakliga kirgan. Bu ingliz she'riyatidagi qaxramonlik yoki marsiya to'rtliklari (The heroic quatrain, or elegiac stanza)ga xos shakl. Qofiya yaxshi, umumiy mazmun ochilgan, ammo she'rda musiqiy joziba, "Qutadg'u bilig"ning nafis ohangi yo'q.

Atoqli tarjimashunos olim Irji Leviy uzoq tillardan shery tarjimaning quyidagi tamoyillarini ko'rsatgan:

1. Vaznni saqlash. Bunda she'rning ritmikasi faqat bir guruh o'quvchilarga hazm bo'lishi mumkin.
2. Vatan adabiyotida mavjud vaznga o'tkazib tarjima qilish. (adaptatsiya)
3. Erkin she'r bilan tarjima qilish, biroq bu jo'n tadbir xisoblanadi.⁵⁹

Turkiy she'riyatning janr xususiyatlari ularning shakliy tuzilishi bilan ham chambarchas bog'liq. Tarjimada bu jihatlarning buzilishi she'rning musiqiy go'zalligiga soya soladi. Xususan, "Qutadg'u bilig" to'rtliklarining qofiyalanish uslubi, baytlarning joylashuvi, ularning ana'naviy she'riy tili, bahri, muallif kechinmalarini ifoda etuvchi intonatsiya va musiqaviylik tarjimada aks etmas ekan,

⁵⁹ И.Левий Искусство перевода. Из-во "Прогресс", М., 1974. стр. 255

ingliz qitobhoni XI asr turkiylariga xos hayot tarzi, bepayon vodiy va dala-dashtlar nafasidan bebahra qolaveradi. Mazkur jihatlarni o'zida jamlamagan tarjimalar orqali Inglizlar va Amerikaliklar qadimgi turkiy hayot manzarasini hozirgi Angiya yoki Amerika qiyofasida tasavvur etaveradilar.

Tarjimaning asl nusxaga adekvatligi mazmunning to'g'ri talqin qilinishi bilan belgilanadi. Ammo bunda tarjima matnidagi badiiy-tasviriy va she'riy vositalarning asl nusxaga monandligi yoki unga yaqinligi nihoyatda muhimdir. Tarjimaning adekvatligi esa har ikki matnning mazmun va ifoda tomonlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Taqqoslaganda esa asl nusxa bilan tarjimaning bir necha variantini (agar bo'lsa) olgan ma'qul⁶⁰.

“Asar musiqasini his qilish, uni tarjimada to'g'ri tarannum etish asosiy talabdir. Musiqani his qilmagan tarjimon she'ning ruhia kirolmaydi. Asarning ma'no-mag'zini berish xuddi shu musiqaviy garmoniyani aks ettirish orqali amalga oshadi.”⁶¹

R.Denkoff asarning inglizcha nashriga ilova qilgan kirishda quyidagilarni ta'kidlaydi: “To'rtliklarni she'riy tarzda berishda men asosan ularni umumiy matndan ajralib turishini maqsad qildim, zero ular boshqasidan faqatgina qofiyalanishi bilan ajralib turadi. Mening to'rtliklar tarjimasida ko'proq erkinlikni tanlashdan maqsadim asliyatga yaqinroq kelish edi.”⁶² Ammo yuqorida ta'kidlanganidek, asar to'rtliklari boshqa janrlardagi baytlardan qofiyalanishi bilan emas, balki semantik va kompozitsion jihatdan ham tubdan farq qiladi.

Yuqoridagi baytning V.Mey tarjimasi:

A servant grows careless — for him you must send,

And find out the reason for his discontent.

And if he is guilty — then punish him sore.

But if he is not — then reward him once more.

Mazmuni:

⁶⁰ F.Саломов, К.Жўраев, С.Олимов. Таржима санъати ва санъат таржимаси. Таржима санъати МТ.Адабиёт ва санъат нашриёти. Т.1978.133 б.

⁶¹ F. Саломов, Н. Комилов Дўстлик кўприклари. Тошкент 1979 й. F. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 126-бет.

⁶² “Wisdom of Royal Glory” Translation with an Introduction and notes by Robert Dankoff. The University of Chicago Press, Chicago 1983 p 35.

Xizmatkor ehtiyotsiz bo'lib qolsa, unga odam yuborish kerak,
Uning noroziligi sababini bilish lozim.

Agar aybdor bo'lsa, qattiq jazola,
Ammo aybsiz bo'lsa, uni yana bir bora mukofotla.

Mutarjimning she'r san'atini chuqur egallagani bir qarashdayoq yaqqol ko'zga tashlanadi. Asliyatga xos musiqiylik ustalik bilan qayta yaratilgan. To'rtlik send-*a*, discontent-*a*, sore-*b*, more-*b* tarzida qofiyalanib, har bir qator 11 bo'g'indan iborat. Bu ingliz she'riyatidagi ikki misrasi qofiyalanuvchi (Two couplets rhyming quatrain) to'rtlikka xos. Qofiya, turoqlanish tahsinga loyiq. Biroq asliyat mazmuniga shikast yetgan. Birinchi misradargi "Yaḥo'lsa"(yanglishsa)ni "extiyotsiz bo'lib qolsa" va "Yaḥo'lmo'shno" (yanglishganini)ni "noroziligini" deb tarjima kilinishi natijasida to'rtlikdagi mantiq yo'qolgan. Go'yoki extiyotsiz xizmatkor nimadandir norozi.

"She'r ona tili bag'rida paydo bo'ladi va shu til soxibi bo'lgan xalqning zavqu hissiyotini qondirishga xizmat qiladi. U tarjima uchun yozilmaydi, lekin tarjima qilinadi. Boshqa millat kitobxonlari ham undan lazzat olishga muyassar bo'lsinlar deb tarjima qilinadi."⁶³

Yana bir baytning o'zbekcha va inglizcha talqiniga e'tibor qarataylik. "Qutadg'u bilig"da aqlli va zakovatli kishilarni ko'klarga ko'tariladi va ularni Yusuf Xos Hojib "er" deb ataydi:

1959 Qayu erdā bolsa uqush birlə өг

Ano' er atag'o'l nechə өгsə өг

1960 Uqush өг bilig kimdā bolsa tugəl

Yavuz ersə kəd te kichig ersə өг

Q. Karimov ushbu baytni quyidagicha tavsiflaydi:

Qaysi (bir) kishida zakovat va aql bo'lsa,

Uni kishi deb atagin, qancha maqtasang maqta.

Zakovat, akl, bilim kimda yetuk bo'lsa,

Yomon bo'lsa (ham) yaxshi de, kichik bo'lsa (ham) maqta.

⁶³ F. Саломов, Н. Комилов Дўстлик кўприклари. Тошкент 1979 й. F. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 80-бет.

Baytning K. Qayumov tavsifi yuzasidan B. To'xlievning "shu o'rinda oxirgi misradagi "o'g'" ning "*maqta*" deb o'girilishi o'rinli emas. Chunki to'rtlik qofiyalari tajnisga asoslanayapti. Qofiyaning tajnisga asoslanishi esa bir xil shakldagi so'zlarning ayni ma'nolarda qo'llanishini inkor etadi, aksincha, u ayni shaklda yangi ma'no ifodalanishini taqozo qiladi. Shunga ko'ra A.N.Samaylovich uning "katta yoshdagi kishi" ma'nosida ekanligini ko'rsatgan edi" degan fikri o'rinli.⁶⁴ Inglizcha tarjimada bu muammo bir qadar bartaraf etilgan, ya'ni u R.Denkoff tarjimasida mana bunday beriladi:

While a man possesses intellect

Let praise for him endure:

What seems bad in him is good.

What seems unripe, mature.

Mazmuni:

(Qaysi kishida zakovat ustun bo'lsa.

Uni cheksiz maqta.

Undagi yomon tuyulgan narsalarni yaxshi,

U yosh ko'rinsa, katta degin.)

R.Denkoff talqinida *kichig ersa og-what seems unripe, mature* (yosh ko'rinsa, katta) orqali ifodalangan. Biroq tarjimon asliyatdagi *uqush* -zakovat va *og-aql* so'zlari ingliz tiliga faqat *intellect*-zakovat tarzida o'girib, *og-aql-wisdom*" ni nazardan soqit qilgan. Bundan tashqari asliyatda zakovat va aqlga ega bo'lganlarni *er*-kishi deb atash lozimligi nazarda tutiladi. Ammo tarjimon bu fikrni faqatgina *Let praise for him - uni maqta* deb tarjima qiladi. Vaholanki, *Ano' er atag'o'l*- uni kishi deb ata-*Call him a man* jumlasini qo'shilganda baytning mazmunan to'kisligi asliyatga ancha yaqin kelib, Yusufning aqlli va zakovatli kishilarni nazarda tutuvchi maqtovlari salmog'i tarjimada kamaymas edi. Tarjimachilik amaliyotidagi yana bir nuqson bu fikr ishtirokidagi ifodalarni to'liq berilmasdan qisqartirish kasalidir. R.Denkoffda ham ushbu "kasallik" alomatlari seziladi. Bu o'rinda atoqli tarjimashunos olim V.G Belinskiyning mana bu fikrlarini keltirish o'rinli: "Tarjimada xech bir o'zgarishlar va qisqartirishlarga yo'l

⁶⁴ Б. Тўхлиев, М. Исоқов ва бошқалар: Ўлмас обидалар. Фан нашриёти. Тошкент 1989. 341-бет.

qo'yilmaslik kerak. Agar asarning zaif tomonlari bo'lsa, uni ham berish shart.”⁶⁵
Lekin yuqoridagi baytda tarjimon tushirib qoldirgan jihat zaif emas, balki bayt mazmunini kuchaytiruvchi qismdir. Zero, Yusuf baytlarga hech qanday “ortiqcha” qismlarni kirib qolishiga yo'l qo'ymagan.

Baytni ingliz shoir va tarjimoni V.Mey bu tarzda o'giran:

The one who shows sense with his wisdom as well,

Than call him a man, his praises forth tell.

The one famed for sense is both learn'ed and wise,

Though weak-he is strong, though blind-with good eyes. (1993-1994)

(O'zini zakovati bilan ham namoyon etgan,

Kishini inson degin va uni maqta.

Kimda bilim va zakovat bo'lsa,

Kuchsiz bulsa-kuchli, ko'r bo'lsa-ko'zi ravshan)

Baytning she'riy tarjimasi tahsinga loyiq. Mutarjim qofiya (well-a, tell-a, wise-b, eyes-b), ohang, vazn va turoqlanishni tarjimada a'lo darajada bera olgan. Ta'qidlash joizki, baytning so'nngi qatori umuman asliyatda mavjud bo'lmagan so'zlar bilan o'girilgan. Asliyatda *Yavuz ersə kəd te kichig ersə əg- Yomon bo'lsa yaxshi, kichik bo'lsa katta degin* bo'lgani holda tarjimada *Though weak-he is strong, though blind-with good eyes- Kuchsiz bulsa-kuchli, ko'r bo'lsa-ko'zi ravshan* tarzida beriladi. Aslini olganda bilimli kishiga berilgan ta'rif inglizcha variantda ham qaysidir ma'noda aks etgan ammo asliyat mazmunining o'quvchiga ta'sir kuchi tarjimada biroz pasayganini payqash mumkin. Aytish mumkinki, mazkur to'rtlik mazmunini qayta yaratishda R.Denkoff yutuqqa erishgan bo'lsa, uning she'riyati V.Mey tarjimasida ancha yaxshi aks etgan.

Bu borada U.Dunaevskiy⁶⁶ “sharq lirikasini yevropa tillariga tarjima qilish oson emas. Bunday she'rlarni odatdagi yevropacha she'riy tuzilish bilan tarjima qilish

⁶⁵ Русские писатели о переводе. XVIII-XIX вв. С П Л. С 190.

⁶⁶ Е.Дунаевский О переводе газели. “Хафиз. Лирика”. М., 1935. стр. 39

garchi til imkoniyatlaridan erkinroq foydalanishga yo'l ochsa-da, asliyatning tashqi qiyofasini butunlay o'zgartiradi" degan fikri bilan tamomila xaq.

Yuqoridagilardan oydinlashadiki, tarjima asliyatni boshqa til vositalari bilan qayta yaratish san'atidir. Qayta yaratilgan adabiy hodisa asliga aynan o'xshamaydi. Agar aynan o'xshasa u qayta yaratilgan bo'lmasdan, balki ko'chirma bo'ladi. Tarjimaning aniqligi uning estetik ta'sir qiymati nuqtai nazaridan asliyatga qanchalik yaqinligiga qarab belgilanadi. "Qutadg'u bilig" baytlarini ingliz tiliga nazmiy tarjima qilish ingliz tarjimonlarining o'ziga xos mahorati nishonasidir.

Tarjimadagi vazn transformatsiyasini mutarjimlar bir qadar ijobiy hal qilishgan. Asardagi to'rtliklar tarjimasiga R.Denkoff asosan erkin yondoshgan va ko'p hollarda to'rtliklarni boshqa vaznga solgan. Ko'r-ko'rona, aynan o'girishdan qochib, o'z o'quvchilari did-saviyalarini ham e'tibordan qochirmagan. Shuning uchun turkiy to'rtliklarga xos qofiyalar tarjimada ingliz qofiya sistemasiga o'tkazilgan. To'rtliklarni tarjimada boshqa vaznga o'tishi asliyat musiqasi va ohangini biroz jarangsizlartirgani ko'zga tashlanadi. Tarjimadagi to'rtliklar ohangi ko'proq zamonaviy ingliz she'rlari nafasini beradi. Ayrim o'rinlarda nojoiz qisqartirishlarga yo'l qo'yilganini kuzatish mumkin.

She'riy musiqa, oxang, intonatsiya, turoqlanish va qofiyani berishda V.Meyning tarjimalari ustunlikka ega. Biroq mutarjim tarjimalarining ko'pchiligida she'riy shakl maromida bo'lgani holda asliyatning mazmun va mantiqi tarjimada lat yegan o'rinlar bor.

III BOB BADIY SAN`ATLARNI TARJIMADA QAYTA YaRATISH MASALASI

3.1. Mumtoz lirik asarlardagi maqollarni tarjima qilish

Dunyoda til mavjudki, maqol ham mavjud, zero, so'z ko'rki maqoldir. Maqol, matal va hikmatli so'zlar xalq orasida doimiy tug'ilib boradi va ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadi. Har bir maqol ma'no, shakl va uslubiy jihatdan o'ziga xos bir asardir. Shunga qaramay, har bir maqol mazmunida kishilarga pand-nasihat, yaxshidan yomonni ajratish, adolat va boshqa mavzulardagi umumiylik mavjud. Ko'p hollarda maqol, matal va hikmatli so'zlarni bir-biridan farqlash oson bo'lmaydi. Chunki ulardagi mavzu umumiyligi, shakliy yaqinlik ularning bir-biriga o'xshab ketishiga sabab bo'ladi.

Maqol bu xalq tomonidan yaratilgan, turmush voqea-hodisalariga asoslangan, pand-nasihat va ezgu maqsadga yo'naltirilgan, chuqur ma'noga ega hikmatdir. Maqolda tugal fikr o'z ifodasini topadi va undan muayyan xulosa chiqariladi.

Maqollarning boshqa asarlar tarkibida qo'llanish hodisasi amaliy jihatdan juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Biz dastlabki turkiy yozma manbalar O'rxun-Enasoy obidalari tarkibidayoq bir qator maqollar qo'llanganini, shuning evazida ulardagi badiiy ta'sirchanlikning yanada kuchaytirilganini yaxshi bilamiz. Maqollarning badiiy asar tarkibida qo'llanishini nazariy jihatdan umumlashtirish esa nisbatan keyingi davrlarga oid. Har holda biz klassik poetikaga, ayniqsa, she'r san'atlariga bag'ishlangan risolalarda bu boradagi dastlabki umumlashmalarni ko'ra olamiz. «Irsoli masal» degan nom ostida mavjud bo'lgan she'riy san'at ayni shu maqollarning badiiy asar tarkibida, ayniqsa, she'riyatda qo'llanishini nazarda tutadi. Turkiy tilda bunday umumlashma dastlab, Shayx Ahmad Taroziy tomonidan amalga

oshirilgan. Alisher Navoiy she'riyatida xalq maqollaridan foydalangan adiblarga xayrixohlik bildirgani ham yaxshi ma'lum.

Maqol ham fol klor janrlaridan biri bo'lganligi uchun uning boshqa asarlar tarkibida qo'llanishi «fol klorizmlar» degan umumiy termin bilan yuritiladi. Bu hodisa haqidagi dastlabki mulohazalarni biz Hodi Zarifov, M.Afzalov singari yirik fol klorshunoslarimiz ishlarida kuzatamiz. Jumladan, M.Afzalov bu haqda shunday yozadi: «Maqol va afforizmlar yozma adabiyot vakillarining ijodida doimo katta va muhim o'rin tutib kelgan.

Mumtoz adabiyotimizning vakillaridan Sakkokiy, Otoy, Lutfiy va boshqa shoirlar, yozuvchilar o'z asarlarining xalqchilligi uchun kurashganlar, xalqa tushinilishi oson bo'lsin, deb xalq ijodidan samarali foydalanganlar.

Alisher Navoiy o'zining eng muhim asarlari «Xamsa», «Mahbub ul-qulub», «Chor devon», «Nazm ul-javohir», «Lison ut-tayr» va boshqa asarlarida ham juda ko'p maqol va afforizmlarni ishlatadi.

Navoiydan keyingi Bobur, Muhammad Solih, Turdi, Maxmur, Nodira, Mahzuna, Uvaysiy kabi yozuvchilarimiz ham o'z asarlarida maqol va afforistik iboralardan ko'p foydalanganlar.

XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashagan o'zbek masalchisi Gulxaniy o'z masallarining hajviy kuchini oshirish, xalq hayoti bilan bog'lash va badiiy jihatdan yanada puxtalash maqsadida xalq maqollaridan barakali foydalangan.....

Muqimiy, Furqat, Zavqiy va Avaz O'tar o'g'li kabi demokrat shoirlar ham o'z asarlarida xalq ijodining go'zal namunalaridan keng foydalanganlar»⁶⁷.

Bevosita «Devoni lug'ot-it turk» va «Qutadg'u bilig»da xalq maqollarining foydalanilishi borasida ham ayrim tadqiqotlar mavjud. «Devoni lug'ot-it turk»da qo'llangan maqol va matallar tarjimasi bo'yicha Ya.Kuchkarovning magistrlik dissertatsiyasi⁶⁸ bajarilgan.

⁶⁷ М.И. Афзалов. Ўзбек халқ мақоллари ҳақида.- Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент, Ўздав бадий адабиёт нашриёти, 1958, 9-11-бетлар

⁶⁸ Кучкарова Я. «Мақол ва ҳикматлар таржимаси хусусиятлари» («Девону луғот –ит турк»нинг инглизча таржимаси мисолида) Магистрлик даражаси олиш учун

«Qutadg'u bilig»dagi maqollarning qo'llanishini A.Valitova ham birinchilardan bo'lib ko'rsatib bergan edi⁶⁹. Q.Karimov «Ilk badiiy doston» kitobida asardagi xalq maqollarining qo'llanishiga oid bir qator misollarni keltirgan⁷⁰. Bu borada B.To'xliievning kuzatishlari ham ancha batafsilligi bilan e'tiborga molik. Olim dastlab, asardagi irsoli masal san'atining o'rni va ahamiyati haqida mulohazalar bildirgan bo'lsa⁷¹, keyinroq, maqollarning asar poetikasidagi o'rni haqida⁷² ancha batafsil to'xtab o'tgan edi.

Maqollarga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularning o'ziga xos jihatlari, poetik hodisa sifatidagi xilma-xil tavsiflariga duch kelamiz. Aytish lozimki, ular til va nutq hodisasi, fol klor janri sifatida turli-tuman qarashlarni mujassamlashtiradi. Bu jihatdan ularning frazeologizmlar, matallar, hikmatli so'zlar bilan yaqinlashtirilishini ko'rish mumkin.

Dastlab, maqol va frazeologizmlar orasidagi munosabat-larni ko'rib chiqaylik. G.L.Permyakov maqollardagi quyidagi xussiyatlarni alohida ta'kidlaydi:

«Bir tomondan, maqol va matallar til hodisasi, ko'p jihatdan frazeologik oborotlarga o'xshab ketadigan turg'un birikmalardir. Boshqa tomondan, bular qandaydir mantiqiy birliklar bo'lib, tugallangan yoki tugallanmagan mulohazalarni ifodalaydi. Uchinchi tomondan esa, ular juda yorqin obrazli shaklda borliqning o'zidagi faktlarni umumlashtirib beruvchi badiiy miniatyuralardir».

Maqollarning frazeologik birliklarga yaqinligini ko'rish qiyin emas. Buning uchun birgina misol keltiraylik. «Yayi bo'ldi qish», «Sut bilan kirgan jon bilan chiqar». Ularning birinchisini biz frazeologiyaga, ikkinchisini maqollarga kiritamiz. Buning sabablari bor, albatta. Ushbu sabalarni izohlashga harakat qilaylik. Birinchi misol o'z ma'nosida qo'llanganida gapga teng bo'ladi. Unda bu misolning frazeologiyaga daxldorligi qolmaydi. Biroq, uning ko'chma ma'noda qo'llanganini

ёзилган диссертация, Наманган 2011, Б.102.

⁶⁹Қаранг: Валитова А.А. К вопросу о фольклорных мотивах в поэме «Кутадгу билиг»- Советское востоковедение, 1958, № 5.

⁷⁰Қаранг. Каримов Қ. Илк бадий дoston,

⁷¹Б.Тўхлиев. Ирсол ул-масал.-// Адабий манбашунослик, 1987

⁷²Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг «Ўтадгу билиг» асари ва туркий фольклор (Мотивлар. Образлар системаси. Тасвир принциплари): Фил.фан.док. дисс.- Тошкент: ЎзФА Тил ва адабиёт институти, 1991.

e'tiborga olsak, misolning frazeologik birlik sifatida tahlil qilish imkoniga ega bo'lamiz. Mazkur holatda u tugallangan ma'noni ifodalay olmaydi. Keyingi misol esa yaxlit tugallangan ma'noni ifodalashi bilan ahamiyatlidir. U o'z ma'nosida ham, ko'chma ma'noda ham tugallangan ohang va mazmunga ega bo'laveradi.

Ilk turkiy obida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari maqol, matal va aforizmlarga boy nodir asardir. "Qutadg'u bilig" she'riyatida xalq og'zaki ijodining kuchli ta'siri seziladi. Buni asar vaznidan boshlab, uning qofiya tizimida, janrlar strukturasida, asar kompozitsiyasida, tili va uslubida, umuman, asarning barcha kompozitsion hamda g'oyaviy badiiy strukturasida kuzatish mumkin."⁷³

"Qutadg'u bilig"dagi maqol, matallar va afrizmlarni o'rganish bo'yicha professor B.To'xliievning maxsus tadqiqodi e'tiborga molik⁷⁴. Ushbu tadqiqot asardagi bunday badiiy san'atlarning filologik va semantik taxliliga bag'ishlangan. Adabiyotshunos H. Abdullaev o'zining nomzodlik ishida "Qutadg'u bilig" she'riyatida maqollarning o'rni va badiiy estetik funksiyalarini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etdi⁷⁵. Tarjimashunos olim Z.Sodiqov o'zining nomzodlik ishida asardagi ayrim maqol va matallarning nemis tilida qayta yaratilishini tahlil qildi.⁷⁶

Fanga "Qutadg'u bilig"ning ingliz tiliga ikkita to'liq tarjimasi yaxshi ma'lum. Ulardan biri R.Denkoff, ikkinchisi V.Mey nomlari bilan aloqador. Afsuski ular mazkur yo'nalish bo'yicha haligacha qiyosiy asnoda tahlilga tortilgan emas.

Shunga ko'ra biz "Qutadg'u bilig"dagi maqol, matal va hikmatli so'zlarning R.Denkoff va V.Mey tarjimalarida qayta yaratilishini asliyat bilan qiyosiy tahlil etishga jazm etdik.

"Qutadg'u bilig"da qo'llanilan xalq maqollari va ularga yo'g'rilgan xikmatlarni mavzu va bayt raqamlari bo'yicha quyidagilarga ajratdik:

- Til va so'zning kishiga foyda va zarari xususidagi maqollar:

⁷³ Тўхлиев Б.. "Қутадғу билиг" поэтикаси масалалари. - // "Ўлмас обидалар", Т.: "Фан", 1989.421 бет

⁷⁴ Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг "Қутадғу билиг" асари ва туркий фольклор: филология фанлари доктори ... диссертацияси. Ўзб.Респуб. ФА. А.Навоий номидаги тил ва адабиёт институти. Т, 1991. 322 бет

⁷⁵ Ҳ.Абдуллаев. Халқ мақолларининг Қутадғу билиг" поэтикасидаги ўрни ва бадий эстетик функциялар. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент 2004

⁷⁶ Содиков З. Юсуф Хос Ҳожиб "Қутадғу билиг" асарининг олмонча илмий адабий талқинлари. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент 1994

158,163,166,169,173,187,269,271,677,724,693,994,972,1000,1034,123,448,
1867,1882,2408,3620,3734,3736,3737,3796,3797,4049,4228,4448,4968,497,
4972,5110,5651-baytlar;

- Bilim va bilimsizlik, zakovat va nodonlik to'g'risidagi maqollar:
460,150,959,1780,1746,2835,4136,5034-baytlar.
- Ezgulik va yomonlik, oriyat va uyatsizlik, mehribonlik va g'azabkorlik, sevgi va nafrat, qo'zi to'qlik va ochko'zlik, do'stlik, shukronalik, odamgarchilik, sadoqat kabi inson tabiatiga xos jixatlarni aks ettiruvchi maqollar:
235,485,520,523,524,744,851,854,866,867,883,1296,1342,1363,1633, 1911,
2005,2575,3172,3300,4087,4165,4185,4187,4204,5091,5097,5107,52725,5277,5
411,5604,5605,5619-baytlar.
- Kishi uchun aziz va beqadr narsalar xaqidagi maqollar:
655,553,856,1394,1668,2020,3036,3469,3471,3568,3643-baytlar
- Tiriklik va o'lim, kishidan ezgu nom qolishi mavzuidagi maqollar:
1091,1125,1149,1169,1199,1355,1356,1600,3564,4362,5146,5156,5456,608-
baytlar
- Sevinch, alam, firoq, mashaqqat, roxat va ko'ngil orzulari borasidagi maqollar:
426,436,1524,2344,3529,4411,4938,5993-baytlar
- Xushyorlik va g'ofillik, xayotda oq-qorani ajratishga undovchi maqollar:
432,434,1378,1546,1547,1511,3353,3354,4444,4629,5002,5139,5147,5150-
baytlar
- O'zgalar bilan munosabatda zulm va adolat, to'kis xizmat to'g'risidagi maqollar:
420,589,639,640,641,829,878,1546,1573,1573,1610,1726,1998,3308,3348,
3349,3625,4003,4506,4893-baytlar

Tahlil jarayonida asarda 145 dan ziyod xalq maqoli qo'llanilgani ayon bo'ldi.

“Qutadg'u bilig”dagi yetakchi g'oyalardan biri insoniylikdir. Asarda bu mavzudagi hikmatlarning bir nechtasini uchratish mumkin. Kuntug'di elig Oyto'ldiga chin inson sifatlarini ta'riflar ekan mana bu baytni keltiradi.

Yuro'g'lo' bu yalhuq edi-ek okush

Keni cho'n butun er meho kez keshush

Qo'z ermās kishi kər kishilik qo'z-ul
Kəni cho'n kishilərnı өгdi uqush (853-854)

Yuruvchi inson juda-juda ko'pdir,
To'g'ri, chin, yetuk kishi men uchun juda aziz.
Kishi qimmat emas, ko'rgin, kishilik qimmat,
Uquv-idrok to'g'ri, chin kishilarnı madh etdi.

Yusuf Xos Hojib odamlar o'rtasidagi insoniy munosabat, mehr-muhabbat va insonparvarlikni kishilik jamiyatining asosiy tamoyillaridan biri ekanligini takror-takror ta'kidlaydi. Ammo muallif amin bo'ladiki, faqat inson bo'lib yaralish bu insoniylikni anglatmaydi. Chin insoniylik fazilatini Yusuf Xos Hojib kishilar miqdoridan emas, balki rostlik, to'g'rilik va ma'naviy takomillikdan qidiradi. Baytdagi "Qo'z ermās kishi kər kishilik qo'z-ul- Kishi qimmat emas, ko'rgin, kishilik qimmat" maqoli hozirda "Odam bo'lish oson, odamiy bo'lish qiyin" shaklida ishlatiladi Mazkur misralarnı R.Denkoff mana bu tarzda o'giran:

While many men walk standing up
An upright man is rarity;
While many men are human beings
How many practice humanity.

(Tik yuruvchi odam ko'p,
Samimiy kishi kam.
Ko'p odam inson bo'lgani bilan,
Qanchasi insoniylikni ado etmoqda.)

R.Denkof tarjimasidan ko'rish mumkinki, asliyatdagi "Kəni cho'n butun er meħə kəz kəshush- To'g'ri, chin, yetuk kishi men uchun juda aziz" "An upright man is rarity- Samimiy kishi tansiq" tarzida berilgan va asliyatdagi fikr o'zgarib ketgan. Nazarimizda tarjimon misraning semantik yaxlitligiga erishish uchun shu yo'lnı tutgan, zero mazkur ikki qatorning to'la mazmuni misraning mantiqiy butunligini ta'minlaydi. Ammo e'tibor qilish lozimki, asliyat muallifi kerak bo'lsa har bir qatorda

mazmunan butun fikrni bergan. Baytning ikkinchi misrasidagi “Qo’z ermās kishi kōr kishilik qo’z-ul- Kishi qimmat emas, ko’rgin, kishilik qimmat” maqolining tarjimasi misrada bittagina “insonlar orasida insoniylik qiluvchilar kam” degan fikrni ochib bergan, xolos. Bu maqol darajasidagi mazmunni anglatolmaydi. Vaholanki, asliyatda bundan tashqari “to’g’ri kishilarga doimo maqtov va ezguliklar borligi” nazardan chetda qolgan. Birinchidan, bu xalq maqoli na so’zma-so’z va na muqobil variant bilan o’girilgan. Tarjimon bayt mazmunini o’zi istagan usul bilan yoritishga uringan va u bunga xaqli. Biroq asliyat mazmunini imkon qadar to’laroq ochib berish uning asosiy vazifasi edi. Ikki-chidan, misra she’riy tarjima qilingani holda unda vazn va qofiya saqlanmagan. Biz “aruzni aruzda o’g’irish” shart degan da’voda yiroqmiz. Ko’p hollarda buni imkoni yo’q. Ammo misra “Human is not precious, humanity is, And wisdom appreciated humanity thus” tarzida o’girilganda she’riy vazn va qofiya hamda asliyatdagi xalq maqolining mazmun butunligi tarjimada ancha to’liq qayta yaralgan bo’lar edi.

Baytning V.Mey tarjimasi:

Both nimble and skilful you often may see -

But humble and truthful and just folk please me.

Our numbers aren't small, but our justice is small,

Be just in your dealings and service - that's all!

(Sen ham o’tkir, ham tajribalini ko’rishing mumkin,

Ammo kamtar, dono, rostgo’y xalq meni quvontiradi.

Bizni sonimiz kam emas, biroq adolatimiz kam,

O’z ishingni bajar, ibodatingni qil, shu yetadi.)

Baytning she’riy o’girmasi tahsinga loyiq, zero tarjimada vazn ham qofiya ham saqlangan. Maqol mazmun jihatidan asliyatga anchayin yaqin o’girilgan. “Kishi qimmat emas, ko’rgin, kishilik qimmat”ni “Bizni sonimiz kam emas, biroq adolatimiz kam” tarzida o’girilishi maqol mazmunini ingliz kitobxoniga ancha ta’sirini oshiradi. Biroq Yusuf Xos Hojib nazarda tutgan insoniylik tushunchasi bu tarjimada ham to’liq ochilmay qolgan. Asliyat muallifi kishilik deb atovchi fazilat V.Mey tarjimasida faqatgina adolatlilik bilan cheklanib qolgan, ya’ni tarjimada ma’no toraygan.

Nazarimizda bu mutarjimning o'z olamidagi kishilikning ifodasi. Inglizlarda adolat har qanday fazilatlardan ustun turadi va ularda “Yolg'iz xudo va mening xuquqim” degan shiornamo ibora mavjud⁷⁷. Biroq turkiy “kishilik” o'zida adolat bilan bir qatorda o'nlab ijobiy fazilatlarni mujassamlashtiradi.

“Vositachi til orqali tarjimaning xavfli tomonlaridan yana biri shundan iboratki, frazeologik birliklar vositachi tilga ma'no va uslubiy vazifa jihatlaridan uyg'un birliklar orqali emas, balki erkin ma'nodagi leksik birliklar orqali o'girilganda, leksik birliklar aksariyat kupma'noli bo'lganliklari uchun, asarni vositachi til orqali amalga oshirayotgan tarjimon birlikni kerakli ma'nosini emas, balki boshqa ma'nosini tushunib, o'z tiliga o'girishi, natijada tarjima asliyatdan butunlay o'zoqlashib ketishi hollari ham sodir bo'ladi.”⁷⁸ V.Mey tarjimasida baytning oxirgi misrasi asliyatga umuman mos tushmaydi. Asliyatda “ilimli kishi qadr topadi” deyilsa, tarjimada “o'zing bilan-o'zing ovora bo'l, boshqani qo'y” qabilidagi mazmun o'z aksini topgan. Bu “Qutadg'u bilig” mantiqiga begona fikrdir. Balki tarjimon bayt vazni va qofiyasini saqlash uchun shunday yo'l tutgandir, ammo shakl deb tarjimada asliyatdagi asosiy mazmunni qurbon qilmaslik lozim. Bu she'riy tarjimada yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki she'rda katta mazmun qisqa satrlarda ifoda etiladi. Biznincha, ushbu misra boshacharoq (masalan, “Our numbers aren't small, but our justice is small, Wisdom always honored true human at all”) tarzida o'girilsa durust bo'lar edi. Bu o'rinda asliyatdagi “qo'z” so'zining asl mohiyatini anglab yetishda V.Meyda g'arbcha tafakkurning ta'siri seziladi va uni mutarjim “oz” ma'nosida talqin qiladi. Asliyatdagi bu so'z aynan “qadrli”, “qimmatli”, “kamyob”, “bug'ubor” ma'nosida qo'llangan va buni R.Denkoff “rarity-kamyob” tarzida o'girib to'g'ri talqin qilgan.

Tahlillardan ko'rinadiki, maqollarni tarjimada qayta yaratish mutarjimdan yuksak mahorat talab qiladi. “Qutadg'u bilig” maqollarini ingliz tiliga o'girish borasida R.Denkoff va V.Mey tarjimalarini qiyosiy o'rganish mavzuga oid bir qator nazariy va amaliy xulosalarni beradi. Ikki mutarjim talqinlarida o'ziga xosliklar namoyon bo'lgan. Ayrim hollarda ularning mazmuniga shikast yetgan. R.Denkoff

⁷⁷К.Сиддиқов Худо ва мениин ҳуқуқим. Маърифат гулшани газетаси 2005-йил 6-сон

⁷⁸ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари: Дарслик. Т.: Фан 2005. 39-бет

tarjimasida maqollar ingliz tilida ko'p hollarda umumiy mazmunni berish orqali ifodalangan. She'riy tarjima borasida V.Mey ustunlikka ega. Ammo shaklni saqlab qolishga intilish maqollar mazmuniga shikast yetishiga olib kelgan. V.Mey talqinida asliyat tilini g'arblashtirish va zamonaviylashtirish tamoyillari seziladi.

3.2. So'zlar takroriga asoslangan badiiy san'atlar tarjimasi

“So'z shunday bir mavjudlikki, unga tayanib istedodning tabiati va xarakteri, didi, dunyoqarashi to'g'risida bemalaol aniq xulosalar chiqarish mumkin. San'atkorlikda adashish – aslida so'zda adashish demakdir”⁷⁹.

Professor B.To'xliiev “Qutadg'u bilig” poetikasi xaqida gapirib, so'z takrorlarining ma'noni ifodalashdagi yetakchi o'rinlardan birini egallashini qayd etadi⁸⁰. Biz uning tarjimada aks etishi bilan qiziqdik:

Ajun boldo' axir t $\ddot{e}$ ru artado',
Esizl $\ddot{e}$ rig edgu k $\ddot{e}$ ru artado'.
Uqushluq uqar ul biliglig bilir,
Yo'l ay kun kuning $\ddot{a}$ baru artado'. (6255-6256)
Olam oxir bo'ldi, qonun-qoida (lar) buzildi,
Yomonlarni ko'rib yaxshilar buzildi.
Zakovatli tushunadi, bilimli biladi (ki),
Yil, oy, kunlar kun o'tib tobora buzildi.

Mazkur to'rtlikda oldinga surilayotgan poetik mazmun bevosita so'zlar takrori bilan aloqador. Ularning eng salmoqlisi radif (artado') bo'lsa, unga yordamga kelayotgan “uqushluq uqar”, “biliglig bilir”singari so'zlarning takrori yangi ma'nolarning tovlanib chiqishiga zamin hozirlagan. Birinchi holatda uqmoq fe'lidan avval sifat keyin fe'lning ravishdosh shakli hosil qilingan bo'lsa, keyingi holatda bil o'zagidan avval sifat, so'ng fe'lning hozirgi-kelasi zamon shakli yasalgan. Ko'rinib turibdiki, so'z shakllarining bunday ran-barang holati to'rtlikdagi falsafiy teranlik mohiyatini yoritish uchun qo'l kelgan. Endi mazkur holatning tarjimadagi ifodasini kuzataylik. An'anamizga muvofiq tahlilni V.Mey tajribalaridan boshlaymiz:

The whole world's suppressed by sheer lawlessness now;
The righteous are strangled by evil somehow!
And learned men know it, and wise men perceive,

⁷⁹Хаққул И. Ёътиқод ва ижод. – Т.: Фан, 2007. – Б.146.

⁸⁰ Бу ҳақда қаранг: Тухлиев Б. Вопросы поэтики “Кутадгу билиг” Юсуфа Хас Хаджиба. Ташкент.: Асп-Матбуот, 2004. С. 100-106

This world won't improve, and its bad tracks won't leave! (6490-6491)

Mazmuni:

Butan dunyo endi xaqiqiy pastkashliklar bilan eziladi,
Xaqiqatgo'ylarni shayton bo'g'adi.
Buni o'qigan odam biladi, donolar tan oladi,
Bu dunyo o'nglanmaydi va uning yomon izlari ketmaydi.

To'rtlikda islomiy-tasavvufiy ma'no mavjudligini e'tirof etish kerak. Xuddi shu holat boshqa til va boshqa din egalariga tushunarli bo'lmasligi mumkin. Bu yerda gap dunyoning oxir bo'lgani - oxirzamon tushunchasi bilan bog'liqdir. Bunday tushuncha, boshqa etnik qavm egalari uchun tushunrali bo'lmasligi mumkin. Shunga qo'ra, tarjimon bu tushunchaning o'rniga, uning mazmuniga yaqin bo'lgan boshqa ifodani ma'qul ko'rgan, chamasi. Ammo u xuddi shunday diniy realiyalardan biri bo'lgan boshqa tushuncha ifodasi – "shayton" so'zini qo'llaydi.

To'rtlikdagi asosiy mazmun adolat tushunchasi bilan bog'limq. Gap adolat qonunlarning ishlamay qolgani, ularning buzilishi bilan bog'liq. Xristian dinidagi shayton ham aslida to'g'rilik (keng ma'nodagi adolat)dan yuz birishga undaydigan yovuz kuch sifatida talqin qilinadi. Bu, ehtimol, ingliz tilli (Amerika va Angliyada yashaydigan) kitobxonlarni nazarda tutib qilingan tanlov bo'lishi ham mumkin.

Umumiy tarzda esa to'rtlik mazmuni ancha tugal va tushunarli tarzda amalga oshirilgan. Bu yerda so'zlar takrori tarjimada deyarli saqlanmaganini ko'ramiz. Umumiy xulosalarni aytishdan oldin R. Denkoff tarjimasi bilan ham tanishib chiqaylik:

Time is in ruins. Customs decay.
The good follow the bad astray.
The world grows more and more corrupt.
Year by year and day by day. (252)

Mazmuni:

Zamon buziladi. Odatlar ayniydi.
Yaxshi yomonga ergash (ib yo'ldan adash)adi.
Dunyo yana va yana buzilib boradi,
Yildan yil, kunday kun.

Bu yerda umumiy mazmunning nisbatan kengroq qamrov bilan aks etganini e'tirof e'tishga to'g'ri keladi. Buning ustiga unda bir qator so'zlarning takrorlangib qo'llangani ham tahsinga loyiq bo'lgan. Zero, asliyatdagi so'zlar takrori tegishli ma'no urg'usini yuzaga chiqargan bo'lsa, ya'ni to'rtlikdagi falsafiy-didaktik mazmunning qalqib chiqshiga xamin hozirlagan bo'lsa, tarjimon ham so'zlar takroridan xuddi shu maqsadda foydalangan. Tabiiyki, bu yerda endi asliyatdagi o'sha so'zlaremas balki til imkoniyatidan kelib chiqqan holda boshqa so'zlar takrori istifoda etilgan. Agar asliyatda natijani ifodalovchi (*artadi*) so'z takroroanayotgan bo'lsa, tarjimada bu urg'u jarayonni ifodalovchi (*Year by year, day by day*) so'zlarga tushmoqda.

Bunday holat she'ning emotsional ta'sirini, hech shubhasiz, bir necha marta oshirib yuboradi.

Tarjimada urg'uning ma'no qamroviga tushishi mutaxassislar tomoni-dan, asosan, ijobiy bahoga munosib ko'riladi. Ammo she'riyatdagi shakliy unsurlarning saqlab qolinishi ham poetik yaxlitlik talqinida ijobiy yo'nalishdardan biri hisoblanadi. Asardagi quyidagi misol yordamida mazkur tezisning nechog'lik to'g'ri ekanligini kuzataylik:

Yazuqqa kafarat ig ul, kør, seḡə,

Yazuqsiz kishi kim, ayu ber meḡə?!

Kishi igləsə barcha təklur yazuq,

Yazuq təksə qutlur kishi, ey toḡa. (5856-5857)

Senga kasallik gunoh (lar) uchun kaforatdir (ya'ni

gunohlarni yuvish uchun beriladigan evazdir),

Gunohsiz kishi kim, menga aytib ber.

Odam kasallansa, barcha gunoh (lar) i to'kiladi,

Gunoh (lar) ni to'ksa, odam xalos bo'ladi, ey bahodir.

V.Mey uni shunday o'giradi:

With sickness for earlier sins we must pay —

Have you ever seen one wholly sinless, I say?

When sickness begins — all our sins fly away,

And when they have flown, you feel better that day! (5982-5983)

Mazmuni:

Kasallik bilan biz avalgi gunohlarimizga javob berishimiz

kerak,

Senga aytay, biror marta tamom gunohsizni ko'rganmisan?

Kasallik boshlanganda xamma gunohlarimiz uchib ketadi,

Va ular uchib ketgan kun sen o'zingni yaxshi xis qilasan.

Aytish lozimki, asliyatda har to'rt misrada ham takrorlanayotgan so'z "yazuq" – gunohdir. Tarjimada ham xuddi shu holat to'la saqlangan deyish mumkin. U inglizcha "sin" so'zi bilan ifodalangan. Oxirgi misrada bu ma'noning ifodachisi bo'lgan olmosh so'z turkumida ("they") namoyon bo'lmoqda.

To'rtlikda yana bitta so'z takrori ("ig") mavjud. U "kasallik" ma'nosini beradi. Tarjimada buning mukobilida "sickness" so'zi olingan. Bu so'zning baytlararo takroridagi mutanosiblikning saqlangani ham e'tiborlidir. To'rtlikni R. Denkoff talqini:

Who is sinless? Tell me this!

Illness is atonement for one's sins.

Fever is like the refiner's fire:

The soul thus refined, salvation wins. (234)

Mazmuni:

Kim gunohsiz? Menga buni ayt!

Kasallik kishining gunohlariga kafildir.

Isitma (temirni zangdan yoki boshqa metallardan) tozalovchining
olovi kabidir,

Vijdon tozalansa, najot topiladi.

Ko'rinib turibdiki, bu yerda shaklga emas, asosan ma'noning tarjima qilinishiga e'tibor berilmoqda. Endi yana bitta to'rtlik tarjimalarini kuzatamiz:

Bu dunya ishi ker oyun ul oyun

Oyunqa qato'lma nerək bu oyun

Idih yarlo'qo' qo'l eziñ qulluqo'

Qalo' tutmasa sen anuq tut boyun (5805-5806)

Bu dunyo ishini ko'r, (u) nayrangdir, nayrang,

Nayrangga aralashma, bu nayrang nega kerak.

Egangning buyrug'ini, o'zingning bandaligingni qil,

Agar sen (bunga) amal qilmasang, muqarrar (taqdir hukmini ijro etish uchun) bo'yin tut.

Bu yerdagi so'zlar takrori inson taqdirining murakkabliklarini ko'rsatish uchun xizmat qilmoqda. Asliyatda agar inson dunyo mohiyatini to'la anglab yetmaydigan bo'lsa, u taqdirning quliga aylaibqoladi, bunda insonning taqdirga bo'yin egishdan boshqa chorasi qolmaydi, degan hukm mavjud.

To'rtlikning V.Mey talqini:

The affairs of this world are amusement — a game!

Don't flatter them then — they are tricks all the same.

God's servant are you, so respect his command;

If you don't obey, in the dock you will stand!(5930-5931)

Mazmuni:

Bu dunyoning ishlari zavqlanish-o'yin,

Ularga berilma, ularning hammasi bir xil hiyladir.

Xudoning xizmatkorimisan, unda uning buyrug'iga itoat et.

Agar sen itoat qilmasang, dok⁸¹da (boshi berk ko'chada) qolasan.

Ko'rinadiki, yuqoridagi hukm inglizcha tarjimada ham mavjud. Ammo bu yerda dunyoning inglizcha ko'rishning mahsuli ham ochiq namoyon bo'lgan. Tarjimon Angliya ijtimoiy hayotidagi asosiy unsur dengiz va kemachilikka oid bo'lgan tasavvur va qarashlarga tayangan holoda o'ziga xos metaforik obraz yaratgan. Unga ko'ra, kemanding dengizdan quruqlikka chiqib qolishi hayotning tugashiga tenglashtiriladi.

⁸¹ Док – кемаларнинг сувга ботиб турадиган қисмини қуриш, сувдан чиқариб қўздан кечириш ва таъмирлаш учун хизмат қиладиганиншоот. Унинг қуруқ ва сувли ва сузиб юрувчи турлдари мавжуд. Бу ҳақда қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 3-жилд, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002, 340-бет. турлари

Amerika muhiti esa bu tarjimaning mazmuniga o'z ta'sirini boshqacharoq tarzda o'tkazgan. R.Denkoffda dunyo – qimorxona degan tasavvurdan kelib chiqadi:

Why stake your life
On a loaded pack?
Do God's will
Or risk your neck!(232)

Mazmuni:

Nega hayotingni tikasan,
Liq to'la narsaga?
Xudoning istagini bajar,
Yoki bo'yningni xatarga qo'y.

Bularning hammasi shuni ko'rstadiki, asliyat va tarjima orasida nihoyatda xilma-xil bog'lanishlar mavjud. Bu bog'lanishlarning bir qisimini izohlash mumkin bo'lsa, bir qismining yuzaga kelish sabablarini dabdurustdan topish va sharhlash katta kuch va mehnatni talab qiladi. Ammo shu narsa aniqki, faqat she'r san'atlari tarjimasi yo'nalishining o'ziyoq bu sohadagi rang-barang talqinlar uchun keng imkoniyatlarni ochib bera oladi. She'riy san'atlar tarjimasida til va madaniyatlar o'ziga xosligi bilan izohlanadigan muammolar bilan bir qatorda, har bir tilning ichki imkoniyatlaridan, tarjimonlarning tajriba va mahoratlari, ularning shaxsiy fazilatlari, dunyoqarashlaridan kelib chiqadigan o'ziga xosliklar ham bu o'rinda ikkinchi darajali rol o'ynamaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mumtoz lirik asarlar va ularning xorijiy talqinlarini atroflicha tadqiq etish ishlari kengayib bormoqda. Biz mazkur magistrlik dissertatsiyamizda mazkur mavzu yuzasidan ilmiy tag'lillar olib bordik. Bugungi kunda ilk turkiy yozma obidalar xisoblanmish "Devoni lug'ot-it turk" va "Qutadg'u bilig" kabi asarlarni o'rganish va tadqiq etish bo'yicha katta tajribalar to'plandi. Bu borada o'ziga xos maktablar yaratildi.

Mazkur lirik mumtoz asarlarning xorijiy tarjimalarini va asliyatini lingvistik, filologik jihatdan tadqiq etishda akademik G'.Abdurahmonov, S.Mutallibov, tarjimashunos olim Z.Sodiqov, Q.Sidiqov va boshqa bir qator olimlarning e'lon qilgan ilmiy ishlarning alohida o'rni bor.

Mazkur asarlar XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib jahonning ko'plab mamlakatlarida o'rganila boshlandi. Venger olimi H.Vamberi va olmon-rus sharqshunosi V.Radlovlarining "Qutadg'u bilig" bo'yicha amalga oshirgan olmoncha tarjimalar, turk olimi R.R.Aratning tanqidiy matn va usmonli turkcha tarjimasi, o'zbek olimi Q.Karimovning puxta ilmiy asoslarga tayangan transkripsiyasi va hozirgi o'zbek tiliga taabdili yaratildi.

"Devoni lug'ot-it turk"ning jahon olimlari nazariga tushganiga ancha vaqt bo'ldi. Bir qator turk olimlari bu borada fundamental tadqiqotlar olib bordilar. Qozoq olimasi A.Avezovanning tadqiqotlari aloxida ahamiyatga ega.

XX asrning oxiri "Devoni lug'ot-it turk" va "Qutadg'u bilig"ning dunyo afkor ommasiga tanilishida alohida davr bo'ldi. Bu paytga kelib asarlar ingliz tiliga tarjima qilindi. "Qutadg'u bilig"ning birinchi inglizcha tarjimasi (1983 yil) Chikago universiteti professori, turkshunos olim Robert Denkoff tomonidan amalga oshirildi.

Ikkinchi inglizcha talqin (1998 yil) ingliz shoir va tarjimoni Volter Mey tomonidan yaratildi. Bu jahon tarjimachiligi tarixida asarning ingliz tilidagi mukammal birinchi she'riy tarjimasi sifatida e'tirof etilishga loyiqdir. Bu tarjima asarning S.Ivanov amalga oshirgan ruscha tarjimasi vositasida yuzaga kelgan.

"Devoni lug'ot-it turk" Chikago universiteti professori, turkshunos olim Robert Denkoff va professor Jeyms Kellilar tomonidan 1985 yilda to'laligicha ingliz tiliga o'girildi.

“Qutadg’u bilig” Islomiy-Forsiy “shohlar ko’zgusi” an’anasida bitilgan yirik didaktik dostonidir. U mazmun jihatidan davlatni idora qilish to’g’risida bo’lib o’zida asar yaratilgan davr madaniyatini to’laligicha namoyon etadi. U xajm borasida «Devoni lug’ot it-turk»dan kichikroq. Bu asar ahloq-odob, inson xulq-atvori va davlat yuritish ishlari haqida bo’lganligi bois unda tabiat mavzusiga bag’ishlangan baytlar bir qadar kam.

Turkiy she’riyatning janr xususiyatlari ularning shakliy tuzilishi bilan ham chambarchas bog’liq. Tarjimada bu jihatlarning buzilishi she’rning musiqiy go’zalligiga soya soladi. Xususan, “Qutadg’u bilig” to’rtliklarining qofiyalanish uslubi, baytlarning joylashuvi, ularning ana’naviy she’riy tili, bahri, muallif kechinmalarini ifoda etuvchi intonatsiya va musiqaviylik tarjimada aks etmas ekan, ingliz qitobhoni XI asr turkiylariga xos hayot tarzi, bepayon vodiy va dala-dashtlar nafasidan bebahra qolaveradi.

Tarjimadagi vazn transformatsiyasini mutarjimlar bir qadar ijobiy hal qilishgan. Asardagi to’rtliklar tarjimasiga R.Denkoff asosan erkin yondoshgan va ko’p hollarda to’rtliklarni boshqa vaznga solgan. Ko’r-ko’rona, aynan o’g’irishdan qochib, o’z o’quvchilari did-saviyalarini ham e’tibordan qochirmagan. Shuning uchun turkiy to’rtliklarga xos qofiyalar tarjimada ingliz qofiya sistemasiga o’tkazilgan. To’rtliklarni tarjimada boshqa vaznga o’tishi asliyat musiqasi va ohangini biroz jarangsizlartirgani ko’zga tashlanadi. Tarjimadagi to’rtliklar ohangi ko’proq zamonaviy ingliz she’rlari nafasini beradi. Ayrim o’rinlarda nojoiz qisqartirishlarga yo’l qo’yilganini kuzatish mumkin.

Maqollarni tarjimada qayta yaratish mutarjimdan yuksak mahorat talab qiladi. “Qutadg’u bilig” maqollarini ingliz tiliga o’g’irish borasida R.Denkoff va V.Mey tarjimalarini qiyosiy o’rganish mavzuga oid bir qator nazariy va amaliy xulosalarni beradi. Ikki mutarjim talqinlarida o’ziga xosliklar namoyon bo’lgan. Ayrim hollarda ularning mazmuniga shikast yetgan. R.Denkoff tarjimasida maqollar ingliz tilida ko’p hollarda umumiy mazmunni berish orqali ifodalangan. She’riy tarjima borasida V.Mey ustunlikka ega. Ammo shaklni saqlab qolishga intilish maqollar mazmuniga

shikast yetishiga olib kelgan. V.Mey talqinida asliyat tilini g'arblashtirish va zamonaviylashtirish tamoyillari seziladi.

Faqat she'r san'atlari tarjimasi yo'nalishining o'ziyoq bu sohadagi rang-barang talqinlar uchun keng imkoniyatlarni ochib bera oladi. She'riy san'atlar tarjimasida til va madaniyatlar o'ziga xosligi bilan izohlanadigan muammolar bilan bir qatorda, har bir tilning ichki imkoniyatlaridan, tarjimonlarning tajriba va mahoratlari, ularning shaxsiy fazilatlari, dunyoqarashlaridan kelib chiqadigan o'ziga xosliklar ham bu o'rinda ikkinchi darajali rol o'ynamaydi. Badiiy tasvir vositalarini bir tildan ikkinchi tilga badiiy tarjima qilishda tarjimondan katta estetik maxorat talab etiladi.

Ta'kidlash lozimki, "Devoni lug'ot-it turk" va "Qutadg'u bilig"ning jahon ilm ommasi tomonidan fanning turli sohalarida o'rganilishi va ularning ko'plab tillarga tarjima va tabdil qilinishi biz turkiylar xususan, o'zbeklarning jahon tamaddunida o'zimizga xos o'rnimiz borligidan dalolatdir. Mazkur asarlarning xorijiy tarjimalari o'zbek xalqining jahon ilm ommasi bilan uzviy aloqasini barqaror ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b

2. Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.- 56 b
3. Karimov I. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilliga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zi, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2010 yil 1- sentyabr';
4. Karimov I. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom – taraqqiyotimizning muhim omilidir", "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabar';
5. Karimov I. "Barcha reja va das turlarimiz vatanimiz taraqqi yotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi", "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 22 yanvar;
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: "O'zbekiston", 1998. - 35 b.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: "O'zbekiston", 2008.
8. Abdurahmonov F. "Qutadg'u bilig" va uning tarjimalari. G' Sharq mash'ali: – Toshkent: 1998. № 1-2. 58-63 b.
9. Abduraxmonova B. Ta'lim bosqichlarida "Qutadg'u bilig"ni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari: Ped. fan. nomz. diss.... – Toshkent: 2007. 266 b.
10. Abduazizov A. "QutadG'u bilig" ingliz tilida. O'zbekiston adabiyoti va san'ati G'G' –Toshkent, 1993, № 28 (3236).
11. Atoulloh Xusayniy. Badoyi'u-s-sanoyi`. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1981.
12. Baqoeva M. Angliya, AQSh adbiyotidan o'zbek tiliga she'riy tarjima va qiyosiy she'rshunoslik muammolari. Fil. fan. dok. Diss... . Toshkent 2004.
13. Denkoff Robert. Baxtu taxtga eltuvchi bilim. Ingliz tilidan Z.Sodiqov tarjimasi. G'G' Jahon adabiyoti. T. 2005 yil noyabr soni. 152-bet.
14. Jo'raev O. Majoziy didaktik talqinlar – T.: Adabiyot va san'at. 1989.
15. Isxoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. "Zarqalam" T. 2006. B.128
16. Isomiddinov Z. Yaqin turkiy tillardan she'riy tarjima xususiyatlari. "Manas" eposi tarjimasi misolida. Filol. fanlari nomzodi diss....avtoref. – Toshkent: 1991.

17. Karimov R. "Boburnoma"dagi she'rlar xorijiy tarjimalarining qiyosiy tahlili. Fil. fan. nomz. diss... . Toshkent, 2003.
18. Karimov Q. Yusuf Xos Hojib va "Shohnoma". – Obhestvenno'e nauki v Uzbekistane, 1965, № 8.
19. Karimov Q. "Qutadgu bilig"ning topilishi va o'rganilishi tarixidan. – G'G' Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 2 - kitob. - Toshkent, UzFA nashriyoti, 1961.
20. Karimov Q. "Qutadgy bilig"ning tuzilishi va vazni. – G'G' Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari, 2-kitob. –T.: UzFA nashriyoti, 1961.
21. Mamatqulov M Qadimiy turkiy adabiyotda janrlar poetikasi. Fil. fan. nomz. diss... . Toshkent 2004.
22. Otajonov N. Jahongashta "Boburnoma" – T.: Fan. 1996.
23. Ochilov E. Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi. Fil.fan.nomz. diss.... – Toshkent: 1996.
24. Olimov S. Alisher Navoiy asarlaridagi she'riy san'atlarni tarjimada qayta yaratish va shakl berish muammolari. Filol. fanlari nomzodi diss....avtoref. – Toshkent: 1985.
25. Olimov S. Qofiyaga mingashgan so'zlar. G'G' Tarjima san'ati MT. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980.
26. Orzibekov R. O'zbek lirik she'riyati janrlari. Toshkent. Fan. 2006. –B. 353
27. Rasuliy M. O'zbek adabiyotidan rus tiliga qilingan tarjimalarga bir nazar. G'G' Tarjima san'ati. MT. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T. 1973.
28. Rustamova S.A. Maxmud KoshG'ariy luG'atining leksikografik xususiyatlari. F.f.n. ilmiy darajasi olish uchun yozilgan diss. T.: 1998
29. Salomov G', Jo'raev K., Olimov S. Tarjima san'ati va san'at tarjimasi. G'G' Tarjima san'ati. MT. Adabiyot va san'at nashriyoti. T.1978.
30. Salomov G'. Til va tarjima. T.: Fan. 1978.
31. Sidiqov Q. Xudo va mening xuquqim. Ma'rifat gulshani gazetasi 2005 yil 6-son
32. Sobirov M. "Boburnoma" Villur Tekston tarjimasida. Fil. fan. nomz. diss... . Toshkent: 2001

33. Sodiqov. Z “QutadG’u bilig” tarjimalarining qiyosiy-tipologik tahlili. T., Fan. 2007.
34. To’xliev B. Bilim – ezgulik yo’li. – T.: Fan, 1990.
35. To’xliev B. “Qutadgu bilig” poetikasi masalalari. – G’ “O’lmas obidalar”, T.: Fan, 1989.
36. Tuxliev B. Yusuf Xos Hojibning “QutadG’u bilig” asari va turkiy fol klor: Fil. fan. dok. diss.... O’zFA. A.Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. T, 1991.
37. Shermurodov T. She’r vaznining tahliliy tamoyillari. - G’G’ Akademik litsey ta’limi, - T.: TDPU, 2006, 5-10-betlar.
38. O’zbek halq maqollari. (Tuzuvchilar: T.Mirzaev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov; Ma’sul muharrir Sh.Turdimov) – T.: Sharq, 2003. B. 3-8.
39. O’zbek xalq maqollari. Nashrga tayyorlovchilar: M.Afzalov, S.Xudoyberganov, S.Ibrohimov. – T.: O’zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Tuzatilgan va to’ldirilgan to’rtinchi nashri. 1958.
40. Yusuf Xos Hojib. Qutadgu bilig. Transkriptsiya va hozirgi o’zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi Q.Karimov. – Toshkent: Fan, 1971.
41. O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 12 jild, Toshkent, O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2002.
42. Abdurahmonov G.A. K perevodu “Kutadgu bilig” na russkiy yazo’k. – G’G’ Sovetskaya tyurkologiya, 1970, № 4.
43. Andreev V.D. Nekotoro’e voproso’ perevoda na russkiy yazo’k bolgarskoy xudojestvennoy literaturo’. “Teoriya i praktika perevoda” Izd-vo LGU 1962, S.143.
44. Barolina I.V. Poema “Kutadgy bilig”. – V kn.: Yusuf Xas Xadjib. Nauka bo’t shastlivo’m. Per. H.Grebneva. Tashkent, 1969.
45. Valitova A.A. K izdaniyu kriticheskogo teksta i perevoda “Kutadgy bilig”. – Kratie soobheniya Instituta narodov Azii, T.: XVII. M., 1961 s. 77-88.
46. Vlaxov S., Florin S. Neperevodimoe v perevode. M.: Mejdunarodnaya otnosheniya. 1980.
47. Gachechiladze G. Xudojestvenno’y perevod i literaturno’e vzaimosvyazi. M.J Sovetskiy pisatel , 1980

48. Dunaevskiy ye. O perevode gazeli. "Xafiz. Lirika". M., 1935.
49. Jirmunskiy V.M. Problemo' sravnitel' no-istoricheskogo izucheniya literatur. G'G' Sravnitel' naya literaturovedenie. Vostok i zapad. L.: Nauka 1979. –S. 71
50. Ivanov S.N. Yusuf Balasaguni. Blagodatnoe znanie. M.1990.
51. Popovich A. Problemo' xudojestvennogo perevoda. M.: Vo'sshaya shkola. 1980.
52. Polyakov M. Voprosy' poetiki i xudojestvennoy semantiki. M: Sovetskiy pisatel . 1978. S. 447.
53. Semchinskiy S.V. Nekotory'e voprosy' perevoda rumo'nskoj xudojestvennoy literatury' na ukrainskiy yazyk. G'G' Teoriya i kritika perevoda. L.: Izd. Leningradskogo universiteta. 1962 –S. 127.
54. Fedorov. A.V. Vvedenie v teoriyu perevoda Moskva 1958.
55. Arat.R.R. Kutadgu Bilig II Çeviri. Turk Tarih Kurumu Basımevi. Ankara, 1994. 6-baskı.
56. Bombaci Alesio. Kutadgu Bilig hakkında bazı mulohazalar. – Fuad Koprulu armagani, Istanbul, Osman Yalcin matbaasi, 1953.
57. Cagatay S, Kutadgu Bilig'de Odgurmish'in kisiligi (In Tuer dili arastirmalari yilligi, Belleten, 1967, S.39-49).
58. Denkoff. R. Yusuf Khass Hajib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes, University of Chicago Press, 1983.
59. Dankoff R. Qarakhanid Literature and the Beginnings of Turco-Islamic Culture. In: Central Asian Monuments (ed. Hasan B. Paksoy, Istanbul, 1992), 73-80.Dankoff R. Yusuf Khass Hadjib. In: Encyclopedia of Islam, New Edition. Vol. XI (2001), 359-60.
60. Dankoff R. Mahmud al-Kashgari, Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lughat at-Turk), edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. Cambridge, Mass. [In: Sources of Oriental Languages and Literatures, ed. Sinasi Tekin.] Part I: 1982 (Pp. xi Q 416). Part II: 1984 (Pp. iii Q 381). Part III: 1985 (Pp. 337 Q microfiche)
61. Devereux R., Yusuf Khass Hajib and the "Kutadgu Bilig". (In Muslim Word, 51, 1961, S.229-330).

62. Milletlerarasi Tuerkoloji Kongresi. Teblikler, Bd.1G'1, Istanbul 1985, S.79-88).
63. Karomatova K.M., Karomatov H.S. Proverbs-Maqollar-Poslovitso'. T.: Mehnat. 2000.
64. May Walter. Yusuf Balasaguni Beneficent Knowledge. – M., 1998.
65. Mittler R., Art. Yusuf Has Hacib. Moralist (in R.M., Ottoman Turkish Writers, NY 1988,S.182-183).
66. Musayev Q. English stylistics. T.: Adolat 2003.

Internet manbalari

- <http://humanities.uchicago.edu/depts/Gnele/facultypages/dankoff/index.html>
- <http://wikipedia.org/wiki/Hippocrates>
- vlib.iue.it/carrieG/textsG/carrie_booksG/paksoy-4G'2-1.html - 74k
- <http://humanities.uchicago.eduG/deptsG/nelcG/facultypagesG/dankoffG/index.html>
- <http://wikipedia.org/wiki/Hippocrates>
- vlib.iue.itG/carrieG/textsG/carrie_booksG/paksoy-4G'2-1.html - 74k
- [www.wikipedia.org/wikiG'%25D0%259C%25D0...](http://www.wikipedia.org/wiki/%25D0%259C%25D0...)
- www.peoples.ru/scienceG/philosophyG/kas
- www.textreferat.comG/referat-6546-1.html
- www.britannica.comG/EBcheckedG/topicG'35
- www.literature.uzG/divan_lugat_kashgariG
- www.unesco.kzG/heritagenetG/kzG/contentG'...
- dic.academic.ruG/dic.nsfG/esG'35363G'%25D
- persones.ruG/person-16095.html
-